Xalq tabobatida sachratqi keng qo'llaniladigan o'simliklardan biridir. Quritilmagan ildizi dizenteriya kasalligini va yallig'lanish joylarini davolashda, ildizidan tayyorlangan qaynatma esa ishtaha ochish va ovqat hazm qilishni yaxshilash uchun ishlatiladi. Sachratqining er ustki qismidan tayyorlangan qaynatmadan oftob urgan bolalarni cho'miltiradi[3].

Calendula officinalis L. Dorivor tirnoqgul. *Calendula officinalis* L. - Dorivor tirnoqgul - qoqio'tdoshlar-Asteraceae oilasiga mansub, bo'yi 30-50 (ba'zan 60) sm ga yetadigan o't o'simlik. Ildizi shoxlangan o'q ildiz. Poyasi, tik o'suvchi, asos qismidan boshlab shoxlangan, qirrali bo'lib, yuqori qismi bezli tuklar bilan qoplangan. Bargi oddiy, bandli teskari tuxumsimon, sertuk, poyada ketma-ket joylashgan. Poyaning yuqori qismi qismidagi barglari bandsiz, tuxumsimon yoki lansetsimon, gullari savatchaga to'plangan. Mevasi pista. Manzarali va dorivor o'simlik.

Tirnoqgul xalq tabobati amaliyotida keng qo'llaniladi. O'simlikning gul savatchalari asosida tayyorlangan damlamalari jigar, taloq, me'da va ichak

kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Tirnoqgul gullaridan tayyorlangan damlamalardan kishi badani kuyganda, sovuq urganda, turli yaralarda (xo'ppoz, chipqon, ko'ziko'k, suzlog'ich, chipqon, xasmol va boshqa), sozan, jomcha, bozilatma (kompres) qilinadi. Ushbu damlama bilan og'iz bo'shlig'i kasallanganda chayiladi yoxud g'ar-g'ara qilinadi[4].

***Anthemis tinctoria L.* - Bo'yoqdor zargo'sh.** Bo'yoqdor zargo'shning qaynatmasi shamollash kasalliklarida, diatezlarda, atopik dermatit, gastralgiya, matkadan qon ketishlarda va peshob haydovchi vosita sifatida tavsiya qilinadi. O'simlikning yana bir ajoyib xususiyati bor – bo'yoqdor zargo'shning quritilgan gullari narsalar orasiga joylashtirilgan, bu bilan ularni kuyadan himoya qilingan[4].

***Taraxacum officinalis Web.* - Dorivor qoqio't.** *Taraxacum officinalis Web.* - Dorivor qoqio't, momoqaymoq ko'p yillik sut shirali o't o'simlik. Bargining hammasi ildiz oldi to'p bargdan tashkil topgan. Barg plastinkasi lansetsimon patsimon kesik bo'lib asos qismiga tomon torayib boradi. Gul o'qi tuksiz, ichi kavak, silindirsimon, uzunligi 15-30sm. Gullari tilla sariq rang, savatchaga to'plangan. Mevasi uchmali pista [4].

Qorivor qoqio't (momoqaymoq) ning ildizidan olinadigan galen preparatlari yoki yangi ildizi ishtaxa ochuvchi, xazm bo'lishni yaxshilaydigan, oshqozon va o'n ikki barmokli ichakni faollashtiradigan, o't ishlab chiqaradigan vosita sifatida qo'llaniladi. Bundan tashqari uning ildizi boshqa preparatlar bilan birgalikda holetsistitda, anatsid gastritda, surunkali qabziyatlarda keng ishlatiladi. Dorivor qoqio't ishtaha ochuvchi, o't xaydovchi va siydik xaydovchi yig'malar tarkibiga kiradi [1,4].

Адабиётлар рўйхати:

1. Маткаримова А.А., Махкамов Т.Х., Махмудова М.М., Азизов Х.Я., Ваисова Г.Б. Ботаника. – Тошкент: “Фан ва технология”, 2019. 298 б.
2. Nabiev M. Chotqol ne'mati. Toshkent. “Tibbiyot”, 2004, 173 bet.
3. O'.Pratov., Q.Jumaev. YUksak o'simliklar sistematikasi. Toshkent, “O'AJBNT” , 2003, 146 bet.
4. Uljaboeva N. Xalk, tabobati xazinasidan. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2009, 46-49 betlar.

OMON MATJON ASARLARI TILINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Abdusharipova Dilorom Xo'sinovna
Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani
1-son kasb-hunar maktabi kutubxonachisi

ANNOTATSIYA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning: "...biz xalqimizning ma'naviy kamol topishida madaniyat namoyandalarining ulkan xizmatlari borligini doimo minnatdorlik bilan e'tirof etamiz"... , – degan so'zlari, nazarimizda to'laligicha qalam ahliga ham daxldordir. Shu bois XX asr o'zbek she'riyatining vakillari ichida Omon Matjon ijodi yuzasidan yangidan-yangi talqinlarning maydonga kelishini, ularning tasdiqlanishi yoki inkor etilishini, ular ustida bahs-munozaralarning avj olinishi ilm olamidagi tabiiy hodisa sifatida qabul etmoq joiz.

KIRISH

Jannat O'zbekiston, jannating qani,
Shuncha mehnat qilding, mehnating qani.

deya kuylagan, XX asr o'zbek she'riyatida o'z yo'li, o'z uslubi, o'z qarashi, o'z so'zi borligini ayta olgan shoirlardan biri, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti sovrindori, O'zbekiston xalq shoiri Omon Matjonning she'rlari va dostonlari adabiyotimiz xazinasidan munosib o'rin egallagani bugunda adabiyot ahliga yaxshi ma'lum. Darhaqiqat, shoir ijodini kuzatar ekanmiz, uni o'ziga xos jilvakor ohahglari, purma'no so'zlari sehriga maftun bo'lmay iloji yo'q. Shoirning "Karvon qo'ng'irog'i", "Quyosh soati", "Yonayotgan daraxt", "Yarador chaqmoq", "Seni yaxshi ko'raman", "Daraxtlar va giyohlar", "O'rtamizda birgina olma", "Odamning soyasi quyoshga tushdi", "Qush yo'li", "Iymon yog'dusi", "Ardaxiva" "Xoja Ahror ziyoratlari" kabi to'plamlaridan o'rin olgan she'rlari shular shumlasidandir. Shoir lirik she'rlar bilan birga lirik qissa va dramatik doston janrlarida ham ijod qilib, Xorazm xalq afsonalarining o'ziga xos badiiy talqini mujassamlantirgan "Haqqush qichqirig'i" she'rlar kitobini, istiqlol arafasidagi sho'rolar mamlakati hayotining ziddiyatli manzaralari va jarohatlari tasviriga bag'ishlangan "Gaplashadigan vaqtlar" qissasini, shuningdek, o'zbek xalqining Xorazmdan chiqqan buyuk siymolari haqidagi "Pahlavon Mahmud", dramatik dostonlarini yaratgan. Ko'rinib turibdiki, Omon Matjon ijodida tarixga murojzat qilish ustuvorlik qiladi. Bu haqida uni ijodini o'rgangan adabiyotshunos olim: "Shoir asarlarida tarixga suyanish barobarida uchta muhim g'oyaviy maqsadni ko'zlaydi. Bularning birinchisi – millat, vatan tarixga murojaat va zamondoshiga tengsiz ma'naviy xazinalarni bunyod etib ketgan ajdodlarini tanitish; ikkinchisi – ular qonida bobo– momolari qoldirgan bebaho

me`ros–an`analar ruhini uyg`otish; uchinchisi – kelajakka ana shu ma`naviy xazinalardan qolgan durdonalarni avaylab yetkazishga da`vatan iboratdir. Bularga shoir ishonchli umumlashmalar yaratish, lirik qahramon ruhiy dunyosida kechayotgan jarayonlarning milliy rangdorligini yanada yorqinroq tasvirlash orqali musharraf bo`ladi. Uning lirik qahramoni zamon va kelajak haqidagi fikrlarini aksar holatlarda tarixga suyanmasdan aytishga shoshilmaydi. Chunki u har bir xalq unib, o`sgan milliy zaminidan vaqtincha uzilsa–da, abadul– abad uzilib ketmasligini juda yaxshi tushunadi. Milliy ruh, milliy tuyg`uning hech qachon izsiz yo`qolmaslik fazilatini e`zozlaydi. Shuning uchun ham Omon Matjonning tarixga tayangan qanday asari bo`lmasin, uni har bir inson aql va tuyg`usiga uyg`unlashib ketadigan rang va ohanglarni doimo o`zining ustuvorligini ko`rsatib turadi”³, – deya ta`rif beradi. Bu fikrlar naqadar to`g`ri ekanligini uni ijodi bilan yaqinda tanishganimizda shohidi bo`lamiz. Xususan, “Nega men?!” dostoni shunday asarlar sirasiga kiradi. Dostonda turg`unlik yillari davri haqida so`z yurtgan shoir, yurakdan chiqayotgan so`zlarini rangin satrlarda ifodalaydi:

Yetmish yil el yashab qur'on, tavrotsiz,
Erlar nochor qoldi, ayol avratsiz,
Zamon duradgori, asbob–yaroqsiz,
Ilma–teshik tomni yamashga tushdi.

Ko`rinib turibdiki, dostonda lirik qahramon o`z hayot yo`liga sinchiklab nazar solar ekan, ko`zlari mushkul bir holatni ko`rib lol qoladi? O`zini aldanganini, tanlagan yo`li “ayqashu uyqash” ekanligini anglaydi. Shu sababli el qur`onni yetmish yil yashab o`qimagani, zamon zayli tufayli faqat foniy dunyo g`amiga tushib, o`z hayot tashvishlari bilan bo`lib qolganlarini, shoir iztirob bilan qalamga oladi.

Barchamizga yaxshi ma`lumki, XX asrda bir necha marta yurtning sara o`g`lonlari, ziyolilari nohaq zarbalarga duch kelishdi. Ayniqsa 1937–yil, 1950–yillarda xalqimizni sevimli shoiru yozuvchilariga tuhmat toshlari otilib, ularni vatan xoinligida ayblab qatl qildirib, surgun qilishlari, 1980–yillar “o`zbeklar ishi” tufayli ko`pgina xalqimizni aziz farzandlari jabr ko`rganligini, shoir alam hasratlar ila aytar ekan, bunga asosiy sabab, ba`zi kimsalarni Allohdan qo`rqmagani, chunki qur`onni o`qimagani tufayli iymon e`tiqodsiz bo`lganliklarida deb o`ylaydi:

Qor qora yog`moqda, yomg`ir za`faron,
Daryolar o`rnida oqmoqda armon,
Har podsho o`zicha chiqarib farmon,
Qolganlar bir–birin bulg`ashga tushdi.

Yuqoridagi satrlardan ko`rinib turibdiki, shoir bu hodisalarni tasvirlashda o`ziga xos yo`ldan boradi. Ya`nikim tabiat mavzuining badiiy talqin ma`nolari orqali poetik obrazlar zimmasiga yuklanayotgan mazmun teranligini ko`rishimiz mumkin. Aslida qor oppoq, yomg`ir esa mayin beg`ubor yog`ishi, daryo esa mavj urib oqishi kerak va

ularni harakati yer yuzini yashnatishi, ko'kartirishi lozim. Lekin shoir "qora qor", "za'faron yomg'ir" so'zlarini qo'llash bilan, ular timsolida xalqimiz boshiga tushgan ko'rgulliklarni, ularni azobga solgan farmonlarni, natijada yuraklarida armon qolgan, deb ko'rsatadi. Nazarimizda, bu, "...she'riy asar falsafiy lirika namunasi bo'lishi uchun u, avvalo, ezgulik va yovuzlik, erk-hurriyat va zulm-istibdod, hayot va o'lim, oniylik va boqiylik, yaxshilik va yomonlik, nur va zulmat, muhabbat va xiyonat, tabiat va jamiyat singari boqiy mavzularda bitilgan bo'lishi lozim. Va lekin xalq hayotining, jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-siyosiy bosqichlarida davr-zamon nafasi, millatning ma'naviy-intellektual madaniyati darajasi, shoirning ongi-dunyoqarashi mazkur boqiy mavzularning badiiy-estetik talqinlariga sifat o'zgarishlari olib kiradi. Ushbu o'zgarishlar ramziy poetik obrazlar zimmasiga yuklangan ijtimoiy-falsafiy umumlashma xulosalarda, hikmatli ma'nolarda zohir bo'ladi. O'zligini namoyon qiladi,-degan fikrdamiz.

XULOSA

Yuqoridagi misollardan ham ko'rinib turibdiki, dostonda shoir tomonidan yaratilgan lirik qahramon o'z hayotida, atrof-muhitda, ijtimoiy voqelikda sodir bo'layotgan voqelik bilan daxldorligi, nazdimizda shoir qalbidagi kechinmalarni va fikr-tuyg'ularni dostonda to'kib solish zaruratini yuzaga keltirgan va bu dostonni o'qimishli bo'lishiga sabab bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Саидов А. педагогик mahorat: ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш устувор вазифа сифатида //центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
2. Sharifjon To'lqin o'g A. et al. TA'LIM-TARBIYA TIZIMI VA O'QITUVCHILAR FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING AHAMIYATI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 57-60.
3. Саидов А. СОҒЛОМ ВА БАРКАМОЛ ШАХСНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. Special issue. – С. 262-266.
4. Саидов А., Джураев Р. Воспитание гармоничного поколения-роль спорта в формировании здорового образа жизни //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 203-208.

A COMPARATIVE TYPOLOGY OF 15TH CENTURY ENGLISH AND UZBEK LITERATURE

Axmadova Shaxnoza Qilich qizi

Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani

Buxoro Davlat Universiteti Xorijiy tillar fakulteti

Xorijiy til va adabiyot ingliz tili yo`nalishi 4 kurs talabasi

Annotation: This article explores the literary landscape of the 15th century by conducting a comparative typology of English and Uzbek literature. Through a thorough examination of the cultural, social, and historical contexts, this study aims to highlight the similarities and differences between these two distinct literary traditions. The research employs a multidisciplinary approach, drawing on linguistic, historical, and literary analysis to unravel the intricacies of literary expression in both regions during the 15th century.

Keywords: 15th century literature, English literature, Uzbek literature, comparative typology, literary analysis, cultural exchange, historical context.

The 15th century witnessed a rich tapestry of cultural and literary expressions in various parts of the world. This article focuses on the literary traditions of England and Uzbekistan during this period, aiming to shed light on the unique features that defined their respective literary landscapes.

15th Century English Literature: English literature in the 15th century was marked by the transition from medieval to Renaissance influences. The works of Chaucer, Malory, and anonymous ballads depicted a society grappling with chivalry, romance, and the changing dynamics of feudalism. The use of Middle English and the influence of French and Italian literary traditions added layers of complexity to the narrative.

15th Century Uzbek Literature: In Central Asia, particularly in the Uzbek region, the 15th century saw the flourishing of Timurid literature. Works like "Baburname" and poetry by Alisher Navoi reflected the cultural richness of the era. The use of Chagatai Turkic, Persian, and Arabic elements showcased the diverse linguistic tapestry of Uzbek literature.

The research methodology involves a meticulous examination of primary literary sources from both regions, including poetry, prose, and historical documents. Linguistic analysis focuses on the evolution of language, while historical context illuminates the societal influences on literary production.

A comparative typology of 15th-century English and Uzbek literature involves examining the literary traditions, genres, themes, and cultural contexts of these two distinct regions during that time period. While there are limited records of Uzbek

literature from the 15th century, we can make general observations based on broader Central Asian and Persian literary traditions. In contrast, English literature from the 15th century is more extensively documented.

Cultural and Historical Context:

English Literature (15th Century):

The 15th century in England was a transitional period between the late medieval era and the Renaissance. This period witnessed significant political and social changes, including the War of the Roses, a series of conflicts for control of the English throne between the rival houses of Lancaster and York. The Hundred Years' War, a long-standing conflict between England and France, also continued into the early part of the century.

The advent of the printing press in the mid-15th century had a profound impact on English literature. The printing press, invented by Johannes Gutenberg, facilitated the mass production of books, making literature more widely accessible. This technological advancement played a crucial role in the dissemination of knowledge and the democratization of literature.

Uzbek Literature:

In Central Asia, including what is now Uzbekistan, literature during this period was influenced by a blend of Persian and Turkic cultures. Persian literature, with its rich poetic tradition, had a significant impact on the literary works produced in the region. Turkic cultural elements, reflecting the nomadic heritage of the Central Asian people, also played a role in shaping the literary landscape.

The Timurid Empire, founded by the Turko-Mongol conqueror Timur (Tamerlane), played a crucial role in Central Asian literature during the 15th century. The Timurid court was a center of cultural patronage, fostering the arts, including literature, architecture, and the sciences. Timurid rulers were known for their support of poets, scholars, and artists, contributing to the flourishing of a vibrant cultural environment in the region.

Overall, both English and Uzbek literature during the 15th century were marked by a combination of political upheavals, cultural influences, and the support of rulers or patrons, each contributing to the development of literary traditions in their respective regions.

Language and Scripts:

- English Literature: Written primarily in Middle English. The 15th century saw the transition from Middle English to Early Modern English.

- Uzbek Literature: Persian and Turkic languages played a crucial role. Arabic script was commonly used for writing.

Literary Genres:

- English Literature: Popular genres included Chaucerian poetry, morality plays, and romances. The works of Geoffrey Chaucer, Thomas Malory, and John Lydgate were prominent.

- Uzbek Literature: Genres included epic poetry, mystical and Sufi literature. Timurid rulers patronized poetry, and poets like Alisher Navoi emerged in the 15th century.

Themes:

- English Literature: Themes often centered around courtly love, chivalry, morality, and religious allegory.

- Uzbek Literature: Themes involved epics celebrating heroes, mysticism, and moral teachings. The influence of Persian poetry, particularly the works of Rumi and Hafez, is notable.

Patronage and Audience:

- English Literature: Patronage came from the royal court, nobility, and religious institutions. The audience included both the aristocracy and the emerging middle class.

- Uzbek Literature: Timurid rulers were important patrons of literature. The audience included the elite and those connected to the court.

Notable Authors:

- English Literature: Geoffrey Chaucer, Thomas Malory, John Lydgate.

- Uzbek Literature: Alisher Navoi, a prominent poet and statesman of the Timurid court.

Manuscript Culture vs. Oral Tradition:

- English Literature: Manuscript culture was significant, with works often copied and illuminated by hand. Oral traditions were still present, especially in popular ballads.

- Uzbek Literature: A blend of manuscript culture and oral traditions. Many works were transmitted orally before being written down.

While the literary traditions of 15th-century England and Uzbekistan differed in many aspects, both were influenced by the socio-cultural and political dynamics of their respective regions. The comparison underscores the diversity of literary expression during this period and the unique contributions of each cultural milieu to the world of literature.

The cross-cultural exchange between England and Uzbekistan during the 15th century is evident in the literary borrowings and adaptations. The dynamics of trade, diplomacy, and migration facilitated the transmission of ideas, shaping the narrative styles and thematic preoccupations in both regions. The influence of Islamic mysticism in Uzbek literature and the impact of classical Greco-Roman literature in English works are notable points of intersection.

Conclusions:

This comparative typology underscores the interconnectedness of global literary traditions even in the 15th century. While each region maintained its unique identity, the exchange of ideas and cultural influences resulted in a rich and diverse literary heritage. Understanding these historical connections enhances our appreciation of the global nature of literature.

Further research could delve deeper into specific genres, such as epic poetry or religious texts, to uncover more nuanced aspects of the literary exchange between 15th century English and Uzbek traditions. Additionally, exploring the reception and adaptation of these literary works in later periods could provide insights into the lasting impact of this cultural interchange.

References:

1. Muradovich, Rakhimov Mubin. "Difficulties of Learning Verb Tenses of English for Native Schoolchildren (In the Aspect of Present Tenses)." INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION 1.4 (2022): 159-164.
2. Raximov, Mubin. "TO IDENTIFY THE FREQUENCY OF THE USAGE OF VERB-TENSES BY ANALYZING OF LITERARY WORKS." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 23.23 (2022).
3. A.V. Fedorov. The language and style of the artwork. M, GIHL, 1963
4. "Poetic or spiritual scenes in prose. U.Hoshimov among his contemporaries" Tashkent, 2011.
5. Hoshimov U. "Between two doors" – Tashkent, 2019.
6. Boltaboyev H. "Honorable writer" – Tashkent, 2011.
7. Yulchiyev, K. V. (2019). The category of space and time of tercets. Scientific journal of the Fergana State University, 2(4), 131-134.
8. Жуманиязова, Н. А. (2022). Тилга Эътибор–Элга Эътибор. THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH, 1(2), 130-133.
9. Jumaniyazova, N. A. O. (2022). MALAYSIAN IMPRESSIONS (BASED ON A 2002-2003 SERVICE TRIP). Scientific progress, 3(2), 868-873

OSHQOZON YARASI KASALLIGI

*Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatligi texnikumi
Namozova Umeda Abdurafiq qizi
Ravshanova Kumush Qobil qizi
Islomova Gulrux Islom qizi*

Annotatsiya : Oshqozon yarasi ko'pincha 20-50 yoshli erkaklarda kuzatiladi. Kasallik bahor va kuz fasllarida tez-tez qaytalanishii bilan tavsiflanadi. Oshqozon yarasi sababi, odatda, odamning asab tizimini kuchlantiradigan stresslar bo'lib, u o'z navbatida oshqozon-ichak trakti mushaklarining va qon tomirlarining spazmlarini keltirib chiqaradi

Oshqozon yarasi (lot. *Ulcus gastrica*) — oshqozon shilliq qavatida trofik buzilishlar sodir bo'ladigan surunkali kasallik.. Natijada oshqozonning qon bilan ta'minlanishi buziladi va oshqozon sharbati shilliq qavatga salbiy ta'sir ko'rsata boshlaydi, bu me'da yaralari paydo bo'lishiga olib keladi.

Ammo oshqozon yarasining asosiy sababi *Helicobacter pylori* bakteriyalari va oshqozonning himoya mexanizmlari va agressiv omillar o'rtasidagi muvozanat buzilishidir, ya'ni oshqozon ajratadigan shilliq *pepsin* (oqsillarni hazm qilish uchun javob beradigan ferment) va xlorid kislotaga qarshi bardosh bera olmaydi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bu kasallikdan dunyo aholisining 14 foizi aziyat chekadi.

Ko'pincha, oshqozon yarasi 20 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan erkaklarda tashxis qilinadi — 70% ga yaqin hollarda. Katta yoshlilarda kasallik biroz kamroq aniqlanadi — taxminan 20% hollarda. So'nggi vaqtlarda ayollar orasida kasallikning ko'payishi tendentsiyasi kuzatilmoqda.

Kasallikning kuzatilishi chastotasi yosh va jinsgagina emas, balki shaxsning kasbiy faoliyatiga ham bog'liq. Shunday qilib, oshqozon shikastlanishi xavfi bilan ishlaydiganlar, masalan, kosiblar, shuningdek muntazam ravishda suyuq oziq-ovqatlarni iste'mol qilish imkoniga ega bo'lmaganlar, masalan temir yo'lichilar bu kasallikdan ko'proq aziyat chekishadi. Bundan tashqari, bir mamlakatning turli hududlarida oshqozon yarasi turli xil chastotalarda uchraydi, bu mahalliy aholi ovqatlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq.

OSHQOZON YARASI BELGILARI VA ALOMATLARI :Rivojlanayotgan patologik jarayonning asosiy alomatlarini bilish yordam uchun shifokorga tezroq uchrashish va natijada kasallikning erta tashxislanishini ta'minlaydi, bu esa jarrohlik aralashuvisiz ham terapevtik ta'sirning muvaffaqiyatli bo'lishini kafolatlaydi. Ammo, ba'zida oshqozon yarasi o'zini namoyon qilmaydi, bu esa muntazam tekshiruvdan o'tib turish kerakligini ko'rsatadi. Odatda, me'da yarasining asimptomatik kechishi 25-28% hollarda kuzatiladi va yara bemor o'limidan so'ng aniqlanadi.

Oshqozon yarasini quyidagi alomatlarga ko'ra payqash mumkin:

• **Qorinning yuqori qismida joylashgan og'riq hissi.** Ushbu alomat 75% hollarda namoyon bo'ladi. Bemorlarning yarmi intensiv bo'lmagan og'riq hissidan

shikoyat qiladilar, qolgan 50% da alkogolli ichimliklar yoki achchiq oziq-ovqatlarni iste'mol qilish paytida, ovqatlanishlar oralig'i uzoq vaqt bo'lganida va jismoniy mashqlar bajarish paytida ko'proq kuchayadigan og'riq kuzatiladi;

- Bu hissiyot oshqozonning agressiv muhitga ega bo'lgan kislotali sharbati qizilo'ngachning bo'shlig'iga tushib, uning devorlarini qo'zg'atishi sababli paydo bo'ladi. Ushbu alomat tez-tez kuzatiladi va bemorlarning 80 foizida aniqlanadi. Jig'ildon qaynashi odatda ovqatlanishdan keyin 1-2 soat davomida paydo bo'ladi;

- **Ba'zan qayt qilish bilan birga kechadigan hissi.** Ushbu belgi oshqozon motorikasining buzilishidan kelib chiqadi. Oshqozon yarasida qayt qilish ovqatdan keyin 1,5-2 soat o'tgach kuzatiladi va oshqozon bo'shatilishi sayin yengillik hissi kela boshlaydi. Shuning uchun ko'pincha bemorlar qusishni ixtiyoriy ravishda chaqirishadi;

- **Ishtahaning pasayishi** oshqozon yarasi kasalligida odamning ovqatlanishdan keyin og'riqni boshdan kechirishidan xavfsirash yoki oshqozon-ichak tizimi motorikasi buzilishi sabab kuzatilishi mumkin;

- **Og'iz bo'shlig'iga me'da shirasining nazoratsiz ravishda ko'tarilishi bilan tavsiflanadigan kekirish.** Bunday holda, bemor og'zida achchiq yoki nordon ta'mni his qiladi;

- **Gaz hosil bo'lishining oshishi;**

- **Ovqat qabul qilishdan keyin kuzatiladigan qorindagi og'irlik hissi;**

- **Tezda to'yib qolish tuyg'usi;**

Axatning buzilishi. Defakatsiya bilan bog'liq qiyinchiliklar bemorlarning 50 foizigacha qismida kuzatiladi, ayniqsa, oshqozon yarasining kuchayishi davrida.

Oshqozon yarasining tashqi belgilaridan biri tilda kulrang karash borligidir, bu alomat deyarli doimo oshqozon-ichak trakti bilan bog'liq muammolar mavjudligini ko'rsatib turadi. Bemorda kaftlarning ortiqcha terlashi va epigastral hududga bosib ko'rilganda og'riq hissi paydo bo'lishi ham kuzatilishi mumkin.

Oshqozon yarasida og'riqning tabiati asosan shikastlanishning lokalizatsiyasiga bog'liq. Bemorlarning shikoyatlariga qarab, shifokor oshqozonning bu yoki boshqa qismida yara mavjudligiga shubha qila oladi. Oshqozon yarasi bo'lgan bemorlar o'ziga xos ovqatlanishlari kerak. Birinchidan, parhezga ikkita asosiy talab qo'yiladi: mahsulotlar oshqozon shilliq qavatini ta'sirlantirmasligi, lekin ayni paytda ular organizmning ehtiyojlarini to'liq ta'minlashi kerak. Kuniga kamida besh marta ovqatlanish kerak, lekin bemor a'zoni kengaytirib yubormaslik uchun ovqatni qismlar bilan iste'mol qilish kerak.

JIGAR KASALLIKLARI TURLARI


*Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatligi texnikumi
Mavlonova Dilorom Oybek qizi
Yusupova Idrisaxon Baxtiyorovna
Turakulova Aziza Raximovna*

Anotatsiya: Jigar juda muhim a'zo bo'lib, yog'lar va xolesterolni parchalashga yordam beradigan safro ishlab chiqarish uchun javobgardir. Jigar dori-darmonlarni, gormonlarni, ozuqaviy moddalarni qayta ishlaydi va immunitetni tartibga solish orqali infeksiyalarni oldini oladi. U zararli bakteriyalar va boshqa chiqindilarni olib tashlash orqali qonni zararsizlantiradi va temirni saqlaydi.

Kalit so'zlar : Fibroz , sirroz, jigar saratoni

Jigar o'ndan ortiq hayotiy vazifalarni bajaradi, uni ulkan zavodga qiyoslash mumkin. Uning xodimlari — gepatotsitlar — o'ziga xos jamoalar tashkil etadi. Jigarda bunday funktsional birliklar juda ko'p va ular nobud bo'lgan hamkasblarining ishlarini o'z zimmasiga olishga qodir. Shuning uchun, agar bu bez kasallanadigan bo'lsa, patologiya alomatlari darhol paydo bo'lmasligi mumkin.

Ko'pgina jigar kasalliklari davolash mumkin bo'lgan bosqichida yashirin ravishda kechadi. Alomatlar jigar allaqachon sezilarli darajada shikastlanganda va jiddiy buzilishlar yuzaga kelganida sezila boshlaydi. O'ta murakkab holatlarda jigar kasalligi bemorning o'limiga olib kelishi mumkin.



Ushbu a'zoning keng tarqalgan va xavfli sanaladigan patologiyalari orasida sirroz yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Ammo sirroz juda kamdan-kam hollarda «o'z-o'zidan» rivojlanadi. Istisno holatlari — birlamchi biliar sirroz, bunda jigar hujayralariga immun tizimi tomonidan shikast yetkaziladi. Aksariyat hollarda esa u davolash choralari ko'rilmagan surunkali muammolar natijasida yuzaga keladi.

Fibroz — jigar to'qimasi o'rnini biriktiruvchi to'qima tolalari bilan almashtirilishi. Har qanday jarohatni tuzalishida bo'lgani kabi, jigardagi shikastlanish

joyida ham chandiq paydo bo'ladi. U kollagen, elastin va odatda hujayralararo bo'shliqda joylashadigan boshqa moddalarga boy bo'lgan mustahkam to'qimadan iborat. Faqat fibroz jarayonida ushbu moddalar odatdagidan ko'ra 10 baravar ko'proq to'planadi. Jigar kasalligi bu jigarning 75 foizdan ko'prog'iga zarar etkazishini anglatadi. Ammo, jigar kasalligi jimgina rivojlanib borar ekan, odatdagidan tashqari ko'rinishi mumkin bo'lgan har qanday alomatlarni kuzatib borish kerak. Qandli diabetga qarshi retsept bo'yicha dori-darmonlarga ega bo'lganlar, jigar funksiyasini tekshirish uchun qon testini zarur vaqt oralig'ida yoki tibbiyot xodimining tavsiyasiga binoan topshirishlari kerak.

Chandiq to'qima endi nobud bo'lgan jigar hujayralarining vazifalarini bajara olmaydi. Fibroz jarayoni tez bo'lishi va juda uzoq vaqtga cho'zilishi mumkin. Fibrozning yakuniy natijasi **sirrozdir**.

Omon qolgan jigar hujayralari vaziyatni to'g'irlashga urinishga harakat qiladi va faol ravishda bo'linishni boshlaydi. Ammo, bu boshqa omillar bilan birgalikda ko'pincha **jigar saratoni** — gepatosellyulyar karsinoma rivojlanishiga olib keladi.

Jigar funksiyasining og'ir buzilishi — **jigar yetishmovchiligi** deb nom oladi.

Jigar kasalliklari profilaktikasi medikamentoz va nomedikamentoz bo'lishi mumkin. Ikkinchisi ovqatlanish va turmush tarziga o'zgarishlar kiritishni nazarda tutadi. Hayot tarzini o'zgartirmasdan faqatgina dorilar qabul qilish jigar muammolaridan himoya qila olmaydi.

Jigar xastaligida ovqatlanish tartibi №5 parhezga asoslangan bo'ladi. Asosiy qoida — muntazamlik. Kuniga 4-5 marta kam-kamdan ovqatlanish tavsiya etiladi, ochlik qat'iyan taqiqlanadi. Taomni qaynatish, dimlash yoki pechda pishirish ko'rsatiladi.

Jigar kasalliklarining oldini olish uchun: Sog'lom turmush tarzi : Sog'lom turmush tarzini olib borish yoki unga o'tish yog'li jigar kasalligining oldini oladi. emlash : Gepatitga qarshi vaktsinalar qon va tana suyuqliklari orqali yuqadigan ba'zi infeksiyalar paydo bo'lishining oldini oladi. Dori vositalaridan nazorat ostida foydalanish : Barcha dori-darmonlar, ayniqsa, retseptsiz sotiladigan dorilar tavsiya etilgan dozaga muvofiq qo'llanilishi kerak. Og'irlikni boshqarish : Sog'lom vaznni saqlash jigar, yurak va boshqa organlarga bosimni olib tashlaydi Oziq-ovqat xavfsizligi : Nopok yoki xavfli oziq-ovqat va suvdan saqlaning Kimyoviy moddalardan foydalanishni kamaytirish (Chivin spreysi yoki bo'yoq kabi insektitsidlar teri orqali so'rilib, jigarga zarar etkazishi mumkin bo'lgan kimyoviy moddalardir) zarurdir.

ULTRATOVUSH TEKSHIRUVI



*Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatligi texnikumi
Tog'ayeva Nurdida Ortiq qizi
Sayfiyeva Nargiza Xusniddinovna
Musurmonova Shahnoza Salaydinovna*

Anotatsiya: Ultratovush tekshiruvi bu (UTT)- organlar va to'qimalarni ultratovush to'lqinlari yordamida tekshirishdir. Maxsus ultratovush qabul qiluvchi qurilma bu o'zgarishlarni grafik tasvirlarga aylantirib yozib boradi. Bu tasvirlar monitor yoki maxsus fotoqog'ozda aks etishi mumkin.

Kalit so'zlar : UTT, sensorlar , klinik vaziyat, Doppler.

UTTni bemorni kuzatishning bir necha oydan tortib yillargacha butun muddati davomida ko'p marta qo'llash mumkin. Bundan tashqari, agar klinik vaziyat taqozo qilsa tekshiruvni bir kun davomida bir necha marta amalga oshirish mumkin.

Ultratovush apparati yordamida siz ichki organlarning joylashuvi, shakli, hajmi, tuzilishi va harakat faoliyati haqida ma'lumot olishingiz mumkin. Bu nisbatan sodda, arzon va ishonchli diagnostika usullaridan biridir. Bu xavfsiz, og'riqsiz, tanaga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi va odamni rentgen nurlanishiga ta'sir qilmaydi. *Ultratovush tekshiruvi quyidagi hollarda buyurilishi mumkin:*

- shikoyatlar, og'riqlar mavjudligi;
- yallig'lanish kasalliklari;
- organlarning shikastlanishi;
- o'sma jarayonlari;
- rivojlanish anomaliyalari.

Bundan tashqari, ultratovush homiladorlik davrida homilaning anatomiyasi va funksional holatini o'rganishning asosiy usuli hisoblanadi.

Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar : UTT – bu zararsiz usul, u sog'liq uchun hech qanday xavf tug'dirmaydi. Shuning uchun unga mutlaqo qarshi dalillar yo'q. Nisbiy qarshi dalillar asosan protsedurani o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lmagan holatlar bilan bog'liq: zudlik bilan tibbiy yordam ko'rsatishni talab qiladigan hayot uchun xavfli sharoitlar; UTT apparati sensori bilan aloqani buzadigan o'rganilayotgan hududda terining shikastlanishi yoki teri kasalligi; tanosil a'zolar tizimining infeksiyalari; ortiqcha vazn, shu sababli usulning diagnostik qiymati pasayadi, chunki yog 'to'qimalari ultratovush to'lqinlarining asosiy qismini o'zlashtiradi; quviq patologiyasini tashxislashda siydikni tutolmaslik, chunki to'g'ri bajarilish uchun quviq siydik bilan to'ldirilgan bo'lish kerak; rektal diagnostikada to'g'ri ichak kasalliklari.

Ультратовушнинг afzalliklari : Yuqori axborot mazmuni (ichki organlar haqida batafsil ma'lumot olish va hatto tomirlardagi qonning harakatini baholash imkonini beradi). Xavfsizlik (radiatsiya ta'sirining yo'qligi muolajani ko'p marta takrorlash imkonini beradi, shuningdek, homilani o'rganish, shu jumladan homiladorlikning birinchi trimestrida). Noninvazivlik va og'riqsizlik (ultratovush terining butunligini buzmasdan amalga oshiriladi va noqulaylik tug'dirmaydi). Diagnostikaning nisbatan soddaligi va tezligi. Bir vaqtning o'zida bir nechta organlarni tekshirish. Muolajani bajarish jarayonida natija olish. Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlarning yo'qligi. Qulay narx.

Qo'llash doirasi UTT tibbiyotning ko'plab sohalarida qo'llaniladi. Ushbu tadqiqot bemor hali shikoyat qilmasa ham, turli patologiyalarni aniqlash uchun standart skrining usullariga kiradi.

Yuqori aniqlikdagi diagnostika usuli sifatida ultratovush qorin bo'shlig'i organlari, qorin orqasidagi bo'shlig'i, ayol va erkak jinsiy tizimlari, sut bezlari, yurak, qon tomirlari, homila kasalliklarini aniqlash uchun ishlatiladi. Texnik soddaligi va bajarilish tezligi tufayli usul jarrohlik davolash uchun ko'rsatma bo'lgan favqulodda vaziyatlarni, xususan, o't pufagi, oshqozon osti bezi o'tkir yallig'lanishini va qon tomir trombozining tashxislash uchun ham talabga ega.

Ultratovush apparati qanday ishlaydi? Ishlash printsipti quloq tomonidan sezilmaydigan yuqori chastotali tovush (ultratovush) to'lqinlarining xususiyatlariga asoslanadi. Ular bemorning tanasiga kirib, tekshirilgan to'qimalardan va organ sirtlaridan aks etadi, ularning bir qismi ultratovush skaneriga qaytariladi. Ultratovushning turli to'qimalar tomonidan so'rilishi boshqacha. Masalan, havo yoki gaz uni katta darajada o'zlashtiradi. Shuning uchun muolaja davomida skaner va bemorning tanasi o'rtasidagi havoni yo'qotish uchun gel qo'llaniladi. Shu munosabat bilan, gaz bilan to'ldirilgan ichak sirtmoqlari orqasida joylashgan a'zolar ko'rinmaydi. O'pka, oshqozon, ichaklarni ultratovush bilan tekshirish ham mumkin emas. Muayyan vazifaga muvofiq turli o'lcham va shakldagi sensorlar qo'llaniladi. Ulardan ma'lumotlar qurilmaning kompyuter qismiga uzatiladi, u erda tasvirni monitorda ko'rsatish uchun qayta ishlanadi. Ekranda a'zolar va qon tomirlari oq-qora yoki rangli, ikki o'lchovli tekis yoki uch o'lchovli harakatsiz tasvirlarda ko'rinadi va video formati ham mumkin. Maqsadga va o'rganilayotgan sohaga qarab, shifokor ishonchli natijalarga erishish uchun qurilmaning tegishli funktsional rejimini va skanerning joylashishini tanlaydi.

Ultratovush xavfsiz va og'riqsizdir va tovush to'lqinlari yordamida tananing ichki qismini suratga oladi. Ultratovushli ko'rish, ultratovushli skanerlash yoki sonografiya deb ham ataladi, to'g'ridan-to'g'ri teriga joylashtirilgan kichik transduser (zond) va ultratovush jelidan foydalanishni o'z ichiga oladi. Yuqori chastotali tovush to'lqinlari probdan jel orqali tanaga uzatiladi. Transduser orqaga qaytadigan tovushlarni to'playdi

va kompyuter tasvirni yaratish uchun ushbu tovush to'liqlaridan foydalanadi. Ultratovush tekshiruvlari ionlashtiruvchi nurlanishdan foydalanmaydi (rentgen nurlarida qo'llanganidek), shuning uchun bemorga nurlanish ta'siri yo'q. Ultratovush tasvirlari real vaqt rejimida olinganligi sababli, ular tananing ichki organlarining tuzilishi va harakatini, shuningdek, qon tomirlari orqali oqayotgan qonni ko'rsatishi mumkin. Ultratovush tekshiruvi invaziv bo'lmagan tibbiy tekshiruv bo'lib, shifokorlarga tibbiy sharoitlarni tashxislash va davolashda yordam beradi. An'anaviy ultratovush tasvirlarni tananing ingichka, tekis qismlarida ko'rsatadi. Ultratovush texnologiyasidagi yutuqlar tovush to'liqini ma'lumotlarini 3-D tasvirlarga formatlaydigan uch o'lchovli (3-D) ultratovushni o'z ichiga oladi. Doppler ultratovush tekshiruvi ultratovush tekshiruvining bir qismi bo'lishi mumkin. Doppler ultratovush, shuningdek, rangli Doppler ultratovush deb ham ataladi, bu shifokorga qorin, qo'llar, oyoqlar, bo'yin va / yoki miyadagi (chaqaloqlar va bolalarda) yoki turli organlardagi arteriyalar va tomirlar orqali qon oqimini ko'rish va baholash imkonini beradigan maxsus ultratovush usulidir. jigar yoki buyraklar kabi tana a'zolari. Doppler ultratovushning uchta turi mavjud: Rangli Doppler kompyuter yordamida Doppler o'lchovlarini qon tomirlari orqali qon oqimining tezligi va yo'nalishini ko'rsatish uchun ranglar qatoriga aylantiradi.

Power Doppler - bu rangli Dopplerga qaraganda sezgirroq bo'lgan yangi usul bo'lib, qon oqimini batafsilroq ta'minlashga qodir, ayniqsa qon oqimi kam yoki minimal bo'lsa. Biroq, Power Doppler rentgenologga qon oqimining yo'nalishini aniqlashga yordam bermaydi, bu ba'zi holatlarda muhim bo'lishi mumkin. Spektral Doppler qon oqimi o'lchovlarini rangli rasm sifatida emas, balki vaqt birligida bosib o'tgan masofa nuqtai nazaridan grafik tarzda ko'rsatadi. Shuningdek, u qon oqimi haqidagi ma'lumotni har bir yurak urishi bilan eshitiladigan o'ziga xos tovushga aylantirishi mumkin.

ВЗАИМОСВЯЗЬ КУЛЬТУРЫ И ОБРАЗОВАНИЯ

Камалов Морес Усманович

преподаватель профессиональной школы № 2 г. Намангана

Аннотация: В статье рассматривается современное молодого поколения и его отношение к образованию и культуре. Автор акцентирует внимание на важность процессов образования и усвоения культурных норм не только в развитии отдельной личности, но и общества в целом. Отмечено не только взаимосвязь культуры и образования, но невозможность их существования в отрыве друг от друга. Эти два феномена выступают взаимным дополнением: человек приобщается к культуре посредством образования и, образовываясь сам становится транслятором культурного наследия.

Ключевые слова: культура, образование, наследие, ценности, инновация, взаимосвязь, социализация, юношеский возраст, квази-занятия.

На современном этапе развития Нового Узбекистана перед сферой образования стоит важная задача: подготовка высокообразованных граждан, способных к активной, созидательной деятельности в свободном демократическом обществе. В решении этого вопроса все большее значение имеет развитие творческих начал в человеке, способности преобразовать окружающую жизнь. В связи с этим возрастает роль эстетического, этического образования и воспитания. Именно данные направления решают вопросы формирования суждений, вкусов, развития внутреннего эмоционального мира и духовного облика подрастающего поколения, служат укреплению его сознания, идейной убежденности. Экономическими, социальными, политическими и культурными условиями жизни современного общества и обусловлена задача активного приобщения молодежи к сокровищнице духовного наследия, а также мировой культуры и общечеловеческим ценностям.

Сегодня, когда идет глобализация общества, известно, что широкий размах приобрела ориентация молодежи на атрибуты массовой (в основном западной) культуры за счет снижения настоящих культурных, духовных и национальных ценностей. Культура является важнейшим фактором развития любого народа. Это позволит понять, как совместить преимущества инновационного образования в Республике Узбекистан с современными тенденциями культуры. Так, можно ли считать современное образование неотъемлемой частью современной культуры Узбекистана?

Для того чтобы ответить на вопрос, необходимо выявить основные тенденции современной культуры, при этом следует сделать акцент на молодежную культуру.

Молодежная культура это особое явление, обусловленное стремительным увеличением периода социализации (иногда до 30 лет), которое сопровождается физиологическую акселерацию молодых людей и вызвано необходимостью увеличения времени на образование и профессиональную подготовку, чтобы соответствовать требованиям времени. Сегодня молодые люди раньше перестают быть детьми (с точки зрения психофизиологического развития), но с точки зрения социального статуса они еще долго не принадлежат к миру взрослых.

Юношеский возраст - это период, когда экономическая активность и независимость еще полностью не приобретены. Психологически юность относится к миру взрослых, социологически-к миру подростков. Зрелость с точки зрения насыщенности знаниями наступает рано, а с точки зрения социального статуса и голоса - с опозданием. Молодежь - феномен и социологическая категория, созданная индустриальным обществом, характеризуется психологической зрелостью без значительного участия во взрослых институтах[17,38].

Но обществу нужны молодые люди и их культурные ценности, а взрослые институты должны привлекать их своим отношением, знать их интересы и цели. И здесь возникает очевидная задача: определить интересы молодого поколения и его отношение к образованию[12, 612]. В связи с этим было разработано и проведено социологическое исследование "Культура и образование". Его цель - четко оценить значимость образования для молодежи. В социологическом исследовании приняли участие около 50 человек профессиональной школы №2 города Намангана.

Анкета содержала три вопроса:

1. Для чего вам нужно образование?

Из 50 респондентов 60% считают, что образование необходимо для престижной будущей карьеры, 30% полагают, что учиться нужно только для повышения самооценки, а оставшиеся 10% определяют важность образования как средство завоевания необходимого авторитета среди сверстников и преподавателей.

2. Кто такой культурный человек?

В результате ответов на этот вопрос можно сделать вывод, что представители молодежи считают культурным человеком того, кто образован, то есть того, кто получает или имеет знания, например, ученика, учителя или

студента. Из этого можно сделать вывод, что образование и молодежная культура являются частью друг друга.

3. Существует ли связь между современной культурой и инновационным образованием?

Этот вопрос объединяет два вышеупомянутых вопроса, и результаты показывают отношение молодого поколения к взаимодействию между современной культурой и образованием. Респонденты оценивают эту связь как качественное сотрудничество, способствующее благоприятному развитию этих двух элементов.

Таким образом, молодежная культура и образование тесно взаимосвязаны. И счастье, что это взаимодействие возможно.

Конечно, взаимосвязь образования и культуры уже доказана в рамках общественных наук, и студенческому обществу, потребляющему знания, важно было это понять.

Несомненно, в процессе образования человек приобщается к культурным ценностям. Суть образования развивается и постоянно пополняется за счет культурного наследия разных стран и народов, различных областей науки, которые постоянно развиваются, а также жизни и практики человека[4,17].

Образование – это процесс передачи накопленных знаний и культурных ценностей от одного поколения к другому.

Культура и образование остаются в центре внимания всего всемирного общества. Они выступают в качестве одного из основных факторов прогресса общества и развития цивилизаций[16,40].

Нынешнее профессиональное образование не должно быть примитивным. Колледж не должен готовить для жизни, он сам должен быть особой жизнью, в которой живет человек как становящаяся личность.

Целенаправленное образовательное влияние на формирование «человека культуры» должно ввести в проектирование педагогического пространства, по крайней мере, два новых компонента.

Первый компонент-это современные технологические средства обучения. Персональные компьютеры, подключенные к компьютерным сетям, должны быть на столе каждого учащегося (как в колледже, так и дома). Это требует немедленного изменения структуры учебного здания, так как в современных аудиториях нет места для технологических средств обучения. Есть место только для учащихся и для преподавателей, но нет места для компьютеров, дискет, принтеров, телевизоров, видеокамер, и т.д.

Установить компьютеры в колледжах сейчас и, вероятно, в будущем не только сложно с финансовой точки зрения, но даже при наличии финансовых ресурсов современные учебные аудитории не в состоянии вместить новые

средства обучения. Это требует работы архитекторов и дизайнеров по интеграции компьютеров и технологических средств в пространство здания колледжа. В настоящее время компьютеры интегрированы в учебные аудитории и структуры учебных помещений и присутствуют в колледжах в виде компьютерных аудиторий.

Внедрение компьютеров и других технических средств в стандарт колледжа меняет сам процесс обучения. Компьютеры заменяют роль преподавателя как передатчика информации. Необходимость передачи знаний и информации в современном колледже не исчезнет. Новые образовательные технологии с использованием компьютеров, информации на лазерных дисках и информации в сетях могут многократно улучшить процесс получения учебной информации.

В результате такой работы у учащихся неизбежно возникают вопросы. Обсуждение этих вопросов должно быть организовано преподавателем, а возможно, и несколькими преподавателями, которые являются специалистами в разных областях знаний. Таким образом, занятие или, скорее, квази-занятие превращается в диалог между учащимися и преподавателями, между учащимися и друг другом, поскольку он не ограничивается содержанием одного предмета.

Таким образом, поскольку в диалоге все стороны равны, исчезает асимметрия педагогического общения и одно предметный характер занятия. В то же время функция преподавателя-предметника сохраняется, хотя и существенно изменяется. Это связано с тем, что преподавателю теперь приходится иметь дело не прямо с учащимися, а со знакомыми ему предметами и дисциплинами, разрабатывать обучающие программы для компьютеров и подбирать соответствующие учебные материалы для мультимедиа.

Культура должна быть не только официально примыкающей к образованию отраслью в государственном плане и бюджете "культуры и образования", но и входить в плоть и кровь самого образования, определяя его структуру, логику действий педагогов и организационную стратегию всего образовательного процесса.

Литература:

1. Бордовский, Г.А. Образование: Традиции и современные вызовы // Вестник Герценовского университета. – 2008. – №9 (59). – с. 3–6. 4.
2. Дмитренко, Т.А. Образовательные технологии в системе высшей школы // Педагогика. – 2004. №2. – с. 54–59.
3. Камалова, К. Ф., & Сафиязова, Д. Ж. (2013). Формирование личности-важнейшая задача высшей школы в условиях Узбекистана. *Научный обозреватель*, (2), 31-32.

4. Камалова, К. Ф. (2013). Этические традиции узбекского и татарского народов как факторы взаимовлияния на культуру поведения подростков. *Журнал научных и прикладных исследований*, (11), 16-18.

5. Камалова, К. Ф. (2021). Инновационные образовательные технологии в профессиональной подготовке специалистов. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(7), 118-124.

6. Камалова, К. Ф. (2013). Инновационные технологии и основные тенденции развития современной системы образования. *Научный обозреватель*, (3), 44-45.

7. Камалова, К. Ф. (2022). РУССКИЙ ЯЗЫК В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКИСТАНЕ. *Conferencea*, 203-207.

8. Камалова, К. Ф. (2014). Этические традиции узбекского и татарского народов как факторы взаимовлияния на культуру поведения подростков. *Высшая школа*, (1), 40-42

9. Камалова, К. Ф. (2022). Проблемы обучения русскому языку в условиях двуязычия. *Journal of new century innovations*, 6, 91-100.

10. Камалова, К. (2023). Методика профессионально-ориентированного обучения русскому языку. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(13), 76-84.

11. Камалова, К. Ф. (2023). Русский Язык В Техническом Вузе: Проблемы И Перспективы. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*, 4(4), 105-113.

12. Fedorovna, K. K. (2023). Personality Formation-to the Modern Level. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(4), 611-618.

13. Камалова, К. (2023). Методика профессионально-ориентированного обучения русскому языку. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(13), 76-84.

15. Камалова, К. Ф. (2023). Русский Язык В Техническом Вузе: Проблемы И Перспективы. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*, 4(4), 105-113.

14. Fedorovna, K. K. (2023). Personality Formation-to the Modern Level. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(4), 611-618.

15. Fyodorovna, K. K. (2022). ON THE ROLE OF A FOREIGN LANGUAGE IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE SPECIALISTS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(4), 12-17.

16. Камалова, К. Ф. (1995). Воспитание культуры поведения подростков в семье на взаимовлияющих традициях узбекского и татарского народов.

17. Fedorovna, K. K. (2021). ETHICS EDUCATION IN INTERGENERATIONAL CONTINUITY. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.5 Pedagogical sciences).

18. Камалова, К. Ф. (2013). Формирование личности-на современный уровень. *Научный обозреватель*, (11), 76-78.

19. КФ Камалова КОММУНИКАТИВНЫЕ КАЧЕСТВА ХОРОШЕЙ РЕЧИ. *Solution of social problems in management and economy*. 2023/6/8, Том 2., №7, С.35-42

20. Kamalova Kadriya Fedorovna FORMATION OF THE SPIRITUAL PERSONALITY OF THE FUTURE TEACHER / *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence* ISSN: 2835-3064 Volume: 02 Issue: 04 | 2023 Page | 303 <https://univerpubl.com/index.php/horizon>

BOSHQARUV USLUBINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH TEKNOLOGIYALARI

p.f.f.d (PhD) Kazimov Jamshid Shamshidinovich
Qo‘qon davlat pedagogika institute Maktabgacha ta‘lim
fakulteti o‘quv ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari
Roziqova Muyassarxon Muhammadjon qizi
Ta‘lim muasassalarini boshqaruvi yo‘nalishi
2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Quyidagi maqolada amalda mavjud boshqaruv uslublari va ularning sifat-samaradorlik ko‘rsatkichlari ustida izlanish olib borilgan. Shuningdek ushbu boshqaruv uslublarining takomillashtirish texnologiyalari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: boshqaruv, uslub, texnologiya, yetakchilik, rahbar, tizim, avtoritar, demokratik, liberal.

Аннотация: В данной статье проведено исследование существующих методов управления и показателей их качества и эффективности. Также описаны технологии совершенствования этих методов управления.

10. Ханкельдиев, Ш., & Каримов, Д. (2023). ИССЛЕДОВАНИЕ КУМУЛЯТИВНОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ МЕТОДИКИ ДВИГАТЕЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ЮНЫХ АКРОБАТОВ. Scientific journal of the Fergana State University, (3), 55-55.
11. Komil o'g'li, K. D. (2023). АКРОБАТИКА ВОСИТАЛАРИ ОРҚАЛИ ЕГИЛУВЧАНЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(30), 256-259.
12. Каримов, Д. (2018). МОНИТОРИНГ СПЕЦИАЛЬНО-ФИЗИЧЕСКОЙ И ТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ЮНЫХ ГИМНАСТОК. Scientific journal of the Fergana State University, (1), 30-30.
13. Каримов, Д. (2018). МОНИТОРИНГ СПЕЦИАЛЬНО-ФИЗИЧЕСКОЙ И ТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ЮНЫХ ГИМНАСТОК. Scientific journal of the Fergana State University, (1), 30-30.

14. ХАНКЕЛЬДИЕВ, Ш., & КАРИМОВ, Д. (2017). ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ, НАПРАВЛЕННАЯ НА ПОИСК ОДАРЕННЫХ ДЕТЕЙ В СПОРТИВНОЙ ГИМНАСТИКЕ. *Scientific journal of the Fergana State University*, (1), 19-19

16. Одилжон Жалолидинович Дадабаев. Эффективность оптимизации планирования подготовки юных спортсменов по спортивным единоборствам. Актуальные проблемы совершенствования системы непрерывного физкультурного образования: Материалы IV международной научно-практической конференции. Грозный, 24 сентября 2020 года.

17. О.Ж. Дадабаев. Особенности развития специальной выносливости дзюдоистов. XIX научно-практическая конференция, посвящённая памяти профессора Е.М. Чумакова. 2020/2. 91.

18. О.Ж. Дадабаев. Применение специальной физической подготовки в учебно-тренировочном процессе дзюдоистов. Научно-исследовательский институт физической культуры и спорта. 2020. 15-17.

19. О.Ж. Дадабаев. Планирование общей и специальной физической подготовки в годичном цикле тренировочного процесса в дзюдо. *Academic research in educational sciences*. 2021. 302-308.

20. О.Ж. Дадабаев. Общая и специальная физическая подготовка в годичном цикле тренировочного процесса в дзюдо. Актуальные проблемы физической культуры и спорта в современных социально-экономических условиях. 2023. 37-41

21. Odiljon Zhalolidinovich Dadabaev. Methodology For Detecting Level Of Student Satisfaction With Quality Of Educational Process. 2022/12/23. 60-63.

22. Одилжон Дадабаев. Modeling of the educational and training process and competitive activity of young judoists. *O‘zbekiston milliy universiteti xabarлари*, 2021, [1/6/1] issn 2181-7324

23. О.Ж. Дадабаев. МЕТОДИКА ПОВЫШЕНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ЮНЫХ ДЗЮДОИСТОВ. *Academic research in educational sciences*. 2021. 1199-1205

24. О.Ж. Дадабаев. Обоснование эффективных средств юных дзюдоистов на этапе начальной спортивной специализации foundation of effective means of young judo wrestlers at the preliminary-training stage. ББК 75.1 А-43 Ответственный редактор. 2023. 37-41.

25. О.Ж. Дадабаев. ЮҚОРИ МАЛАКАЛИ ДЗЮДОЧИЛАРДА ЎҚУВ-МАШҒУЛОТ ЖАРАЁНИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. Научно-исследовательский институт физической культуры и спорта. 2020. 20-23

26. О.Ж. Дадабаев. НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ОРГАНИЗМА ЮНЫХ

ДЗЮДОИСТОВ В ПРОЦЕССЕ ПЛАНИРОВАНИЯ ТРЕНИРОВОЧНОГО ПРОЦЕССА. Боевые искусства и спортивные единоборства: наука, практика, воспитание. 2019. 116-121

27. O.Erkaboyev, O. G'aniyev. Globallashuv sharoitida yoshlarning "ommaviy madaniyat" tahdidiga qarshi kurashi. international conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century. 2022.12.25

28. O.Erkaboyev, I. Mamatqulov. Ma'naviy tahdid - yosh avlod kelajagiga tahdid. international conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century. 2022.12.25

29. O.Erkaboyev, G.Qurbonova. Ichkilikbozlik, kashandalik va giyohvandlik yoshlarning aqliy va jismoniy kamoloti kushandasi. PEDAGOG, 2023. 62-63

30. O.Erkaboyev, D.Tursunova. Aqliy tarbiyasini shakllantirishda sharq allomalari qarashlaridan foydalanish . PEDAGOG, 2023. 59-61

31. Erkaboyev.O.M. Armiya safida xizmat qilishga tayyorlash bosqichida jismoniy tarbiyaning ijtimoiy mohiyati. Ta'lim fidoylari-2022. № 3. С. 138-141

32. O.M. Эркабоев. Жисмоний тарбия ва Чакирувга қадар бошланғич тайёргарлик фанлари бўйича тажриба дастурини тузиш тамойиллари. Та'lim fidoylari-2022. № 13. С. 4-8

33. O. Эркабоев. Физическое воспитание и спорт в допризывной подготовке. Та'lim fidoylari, 2022. 70-74

34. O.Erkaboyev. O'smirlarni armiya safida xizmat qilishga tayyorlash bosqichida jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik integratsiyasi. Ta'lim fidoylari, 2022. 73-79

35. O.M. Эркабоев. Наука в системе высших школ Республики Узбекистан. Архивариус. с 24-27

36. O.Erkaboyev. Determination of the physical status of secondary school students through sociological research. Berlin Studies Transnational Journal of Science and 2022. 1-5

37. O.Erkaboyev, ME Abdujannonovich . YOSHLAR ONGIDA MILLIY MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVIYAT VA QADRIYATLARNING O'RNI. TADQI QOTLAR, 2023/4/4. 40-43

СУҒУРТА СОҲАСИДА МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТ ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА

Гулбоев Улуғбек Исломович
Мустақил тадқиқотчи

Аннотация: мазкур мақолада суғурта бозорини назорат қилишнинг замонавий тажрибалари, иқтисодиётнинг турли вазиятларида давлатнинг молиявий назоратининг асосий йўналишлари, назорат қилишнинг замонавий моделлари ва уларнинг суғурта бозорида қўллаш имкониятлари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: суғурта бозори, назорат турлари, суғурта назорати, суғуртани давлат томонидан тартибга солиш, суғурта бозори субъектлари.

Кириш

Замонавий иқтисодиётнинг барқарор ривожланишига эришиш Ўзбекистон Республикасининг иқтисодий тизимини ривожлантиришнинг умумий концепциясига, молия тизимини тартибга солиш шакллари ва тамойилларига жиддий таъсир ўтказишни талаб қилади. Амалда, бу давлат томонидан тартибга солинадиган шаклларнинг ривожланишида ўз ифодасини топади. Суғурта ҳимояси механизмининг пруденциал тартибга солиш тизимини шакллантириш бир вақтнинг ўзида республика молия тизимини ривожлантириш бўйича ягона стратегияни шакллантириш билан бир қаторда тегишли тадбирларни амалга оширишни ҳам ўз ичига олади. Бундай тартибдаги ёндашувда тартибга солишнинг барча даражалари ўртасидаги муносабат шаклланади, марко даражада белгиланган тартибга солиш мақсади ва вазифалари соҳа ҳамда фаолиятнинг ички шароитларига мослаштирилади, бу эса тартибга солиш чораларини яхлит бажарилишини таъминлайди.

Адабиётлар шарҳи.

Суғурта фаолиятини тартибга солиш ва назорат қилишнинг моҳияти бўйича аниқ ёндашувлар мавжуд эмас, шунинг учун уни тўғри таснифлаш, изоҳлаш ва у қандай усуллар ва элементларни ўз ичига олишини аниқлаштиришни талаб қилади. Бу борада қўйидаги фикрларни таҳлил қилиб чиқамиз.

Давлат томонидан тартибга солиш – бозор механизмининг ишлаши учун шарт-шароитларни таъминлаш, давлатнинг белгиланган ривожланиш мақсадларига (шу жумладан иқтисодий ва ижтимоий муаммоларни ҳал этиш) эришиш учун хўжалик юритувчи субъектлар фаолияти ва бозор шароитларига давлат томонидан таъсир кўрсатиш чоралари тизимидир [1].

Суғурта фаолиятини тартибга солиш – бу суғурта иши иштирокчилари, хусусан суғурта субъектларининг самарали ишлашини таъминлаш учун

фойдаланиладиган усуллар, шакллар ва таъсир этувчи иқтисодий воситалар тизими билан ифодаланадиган маълум бир механизмдир [2].

“Суғуртани тартибга солиш” атамаси кам ишлатилади, кўпинча қонунчиликда белгиланган – “суғурта назорати” атамаси ишлатилади. Суғуртани тартибга солиш деганда суғурта бозорининг барқарор ривожланишини таъминлашга қаратилган тегишли меъёрий-ҳуқуқий базани ва аниқ чора-тадбирлар тизимини яратиш тушинилади. Булар қаторига давлат ваколат берган ташкилотлар томонидан суғурта субъеклари фаолиятини тартибга солувчи қонунларни ишлаб чиқиш ва қабул қилиш, шунингдек суғурта компаниялари фаолиятини тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қабул қилиш киради.

Суғурта назоратининг асосий мазмуни суғурта тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя этилишини назорат қилишдир. Аслида эса, суғурта назорати суғуртани тартибга солишнинг йўналиши ҳисобланади [3].

Суғурта фаолиятини давлат томонидан тартибга солиш бир неча йўналишларда амалга оширилади: мулкӣ манфаатларни ҳимоя қилишда давлатнинг бивосита иштироки; миллий суғурта бозорининг ҳуқуқий асосларини таъминланиш; давлат суғурта назорати; суғурта бозорида рақобатни кучайтириш ва монополияга қарши кўрашиш [4].

Суғурта бозорини пруденциал тартибга солиш бу суғурта бозорининг барқарор ва ишончли ишлашини таъминлашга, шунингдек суғурта фаолиятини давлат рўйхатидан ўтказиш ва лицензиялаш орқали суғурталанувчилар (суғурталанган шахслар) манфаатларини ҳимоя қилишга қаратилган ва ваколатли орган томонидан ишлаб чиқилладиган иқтисодий нормалар тизими сифатида таснифлайди [5].

Давлат биринчи навбатда суғурта бозорининг узок муддатли суғурта ва мажбурий суғурта сегментларини тартибга солиш ва назорат қилиш функцияларини бажаришга кўпроқ эътибор қаратиши керак, сабаби ҳаётни суғурталаш тармоғи узок муддатли суғурта заҳираларини шакллантиради ва мажбурий суғуртада эса суғурта компанияларининг фуқаролар олдида мажбурияти ётади [6].

Ҳар қандай давлатнинг суғурта бозорини шакллантиришда, суғуртанинг замонавий турларни жорий этишда, миқдорлар талабига мос суғурта маҳсулотларни яратиш ва сотишда суғурта воситачиларининг роли бекиёсдир. Ҳозирги кунда миллий суғурта бозоридаги суғурта воситачиларининг фаолияти бир қанча муаммоларга дуч келмоқда, жумладан давлат томонидан назорат қилиш ҳаракатлари суст кечмоқда. Бу эса ўз навбатида суғурта воситачилари институтининг шаклланиши қолаверса суғурта бозорининг ривожланишига салбий таъсир қилмоқда [7].

Тадқиқот методологияси.

Мақолада эмперик адабиётлар таҳлили, назарот ва тартибга солиш бўйича илмий қарашлар ва ёндашувлар таҳлил қилинган, суғурта хизматлар бозорини тартибга солиш моделларнинг қиёсий ва солиштирма таҳлили, матрица таққослама таҳлили, таққослаш ва гуруҳлаш каби усуллардан фойдаланилиб хулоса ва таклифлар ишлаб чиқилди

Таҳлил ва натижалар муҳокамаси.

Давлат томонидан суғурта фаолиятини назорат қилиш ёки маълум даражада тартибга солиш дунёнинг барча мамлакатларидан амалга оширилади. Мавжуд тартибга солиш моделлари муҳим параметрлари жиҳатидан универсалдир ва шу билан бирга улар миллий назорат қилиш тизимлари бўйича фарқланади. Ўзбекистон Республикасининг миллий суғурта бозорини давлат томонидан тартибга солишни самарали ривожлантириш учун хорижий мамлакатларнинг бу борадаги амалий тажрибалари ва йўналишларини кўриб чиқиш мақсадга мувофиқдир.

Давлат томонидан тартибга солиш – бу бозор механизмининг ишлаши учун шарт-шароитларни таъминлаш, давлатнинг белгиланган ривожланиш мақсадларига (шу жумладан иқтисодий ва ижтимоий муаммоларни ҳал этиш) эришиш учун хўжалик юритувчи субъектлар фаолияти ва бозор шароитларига давлат томонидан таъсир кўрсатиш чоралар тизимидир.

Бундан ташқари, суғурта фаолиятини давлат томонидан тартибга солиш методлари сифатида кўйидагилар кўрсатиш мумкин:

– ҳуқуқий методлар – давлат томонидан суғурта шартномаларини тузиш ва бажариш шартларини белгилайдиган, суғурта муносабатлари иштирокчиларининг ҳуқуқлари ва манфаатларини таъминлайдиган фаолият юритиш қоидаларини белгилаш;

– иқтисодий методлар – солиқ нормалари ва бюджет сиёсати орқали суғурта фаолиятини тавлар томонидан рағбатлантириш;

– маъмурий методлар – суғурта қонунчилиги, лицензиялаш, барқарорлик ва тўлов қобилияти талабларига риоя этилишини давлат томонидан назорат қилиш;

Суғурта фаолиятини тартибга солишнинг асосий мақсади истеъмолчилар ҳуқуқлари ва жамият манфаатларини ҳимоя қилишдир.

Суғурта фаолиятини тартибга солишда жаҳон иқтисодиётининг барча мамлакатлари учун хос бўлган бешта аниқ мақсадни алоҳида ажратиб кўрсатиш мақсадга мувофиқдир:

- 1) тўлов қобилиятини назорат қилиш;
- 2) маҳсулотларнинг очиқлиги ва сифатини таъминлаш;
- 3) бозор барқарорлигини таъминлаш;
- 4) миллий суғурта компанияларини қўллаб-қувватлаш;

5) иқтисодий ривожланиш таъминлаш.

Суғурта фаолиятини тартибга солишнинг белгиланган мақсадларига тегишли тартибга солиш воситаларидан фойдаланишни кўзда тутати.

Турли мамлакатлар тартибга солувчи тузилмалар томонидан қўлланиладиган механизмларнинг комбинацияси тартибга солувчи мақсадлар билан белгиланади, улар ўз навбатида тартибга солиш жараёнининг энг фаол иштирокчиларининг умумий сиёсий қарашлари ва давлатнинг молиявий, шу жумладан суғурта бозорига таъсирнинг танланган модели асосида шакллантирилади.

Мамлакатнинг иқтисодий хавфсизлигини маълум даражада таъминлайдиган суғурта соҳаси давлат томонидан тартибга солиш иқтисодий ривожланишнинг барча даврларида амалга оширилади. Шундан келиб чиққан ҳолда, суғурта соҳаси иқтисодий тизимнинг барча даражаларида ва ривожланиши давомида тартибга солиниши керак. Бу ваколатли органлар жиддий молиявий қийинчиликлар юзага келганда ва соҳада уларнинг юзага келишини олдини олиш учун махсус чоралар кўришини англатади.

Суғуртага таълуқли адабиётларда пруденциал тартибга солиш ёки назорат қилиш борасида таъриф мавжуд эмас. Пруденциал сўзининг ўзи инглизча prudential - “эҳтиёткор”, “эҳтиёткорона”, “рискларни камайтириш (рад этиш)” сўзларидан келиб чиққан.

Банк соҳасида пруденциал тартибга солиш концепциясидан келиб чиққан ҳолда, суғурта бозорини пруденциал тартибга солишга қўйидагича таъриф бериш мумкин – бу бозор иқтисодиёти шароитида суғурта субъектларининг операцион фаолиятларига аралашмасдан туриб улар фаолияти рискларини камайтирадиган, тартибга солиш таъсирини таъминлайдиган чора-тадбирлар мажмуидир. Шунга мувофиқ, пруденциал суғурта назорати – бу суғурта компаниялари ва қайта суғурта компанияларининг суғурта фаолияти жараёнларини, уларни ташкил этилишини, қайта ташкил этилишини ва тугатилишини муайян кўрсаткичлар (индикаторлар) асосида назорат қилишдир.

Пруденциал тартибга солишнинг мақсади – бу давлат, жисмоний ва юридик шахсларга суғурта ҳимоясини тақдим қилиш учун суғурта бозорининг барқарорлиги ва ишончилигини таъминлаш, шунингдек суғурта хизматлари истеъмолчиларининг манфаатларини ҳимоя қилишдир.

Шу муносабат билан пруденциал тартибга солишнинг вазифалари қўйидагилардан иборатлиги кўришимиз мумкин:

- Давлат ва суғурталанувчилар, шунингдек бошқа манфаатдор томонларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилинишини таъминлаш;
- суғурта бозорини ҳимоя қилиш;

– суғурта ҳимояси нарҳини пасайтиришда суғурта бозорида рақобат муҳитини яратиш, замонавий технологиялар ва хизматларни жорий этиш ва бошқалар;

– умумий суғурта бозори ва ҳар бир суғурта компанияси фаолияти бўйича шаффофликни таъминлаш.

Пруденциал тартибга солиш аниқ бир суғурта компаниясининг банкротлигини олдини олишга қаратилган эмас, балки у тизим манфаатларини ҳимоя қилишга қаратилган ва шу маънода макроиқтисодий аҳамиятга эга.

Юқорида айтилганларни ҳисобга олган ҳолда, суғурта фаолиятини пруденциал тартибга солишнинг қўйидаги функцияларини ажратиб кўрсатиш мумкин:

1) *олидини олиш*; суғурта компанияларининг рискли фаолиятини минималлаштиришга қаратилган чора-тадбирлар;

2) *ҳимоя*; суғурта компаниялари ўз мажбуриятларини бажармаган тақдирда суғурталанувчилар ва бошқа манфаатдор томонларнинг манфаатларини кафолатлашга қаратилган чоралар.

Пруденциал тартибга солишнинг олдини олиш функцияси таркиби қўйидаги жиҳатлари орқали очиб берилган:

1) суғурта фаолиятини билан шуғулланмоқчи бўлган хўжалик юритувчи субъектларга уларнинг мажбурий рўйхатдан ўтказилиши ва лицензиялаш кўринишидаги чекловларнинг жорий этилиши;

2) суғурта компаниялари капиталининг етарлилиги, ликвидлиги ва тўлов қобилияти билан боғлиқ суғурта фаолиятининг минимал иқтисодий стандартларини шакллантириш, шунингдек фаолиятининг асосий параметрларини белгилайдиган ва шу билан бирга улар фаолиятининг рисклилик даражасини камайтирадиган талаблар (демпинг ва ҳ.к);

3) умуман суғурта тизимининг барқарорлиги ва ишончлигини кузатиш мақсадида суғурта компанияларининг белгиланган иқтисодий стандартларга мувофиқлигини назорат қилиш.

Суғурта бозорини пруденциал тартибга солиш суғурта фаолияти субъектларига қўйидагиларни белгилаш билан амалга оширилади:

– суғурта фаолияти билан шуғулланишда мажбурий рўйхатдан ўтиш ва лицензиялашни назарда тутувчи суғурта компаниялари фаолиятини чекловчи қоидалар;

– суғурта компаниялари рискларини чеклашга қаратилган стандартлар (ўз маблағларининг етарлилиги, ликвидлик, активлар таркиби ва бошқалар);

– суғурта компаниялари томонидан ҳисобот тақдим этиш тартиби ва муддатларини белгилайдиган нормалар;

– банкротлик, молиявий соғломлаштириш, тугатилиш босқичларини назорат қилиш қоидалари;

– суғурта компанияларининг пруденциал нормларни бузганлик учун ва маълумотларни ошкор этилмаганлиги учун жавобгарлиги.

Шунингдек қўйидагиларга амал қилиш керак:

– суғурта компанияларининг рисклари бошқариш тизимида қўйилган талабларга;

– суғурта компанияларининг ички назорат тизимига қўйилган талабларга;

– суғурта компаниясининг ахборотларни ошкор қилиш талаблари;

– суғурта хизматларини тақдим этиш қоидаларига (стандартлари).

Шунингдек пруденциал тартибга солиш доирасида қўйидаги талабларни ўрнатиш мумкин:

– суғурта компаниясининг рискларни бошқариш тизимининг мавжудлиги, юзага келадиган ёки мумкин бўлган рискларни доимий аниқлаш, баҳолаш, мониторинг қилиш, бошқариш ва ҳисобот бериш учун зарур бўлган стратегиялар, жараёнлар ва ҳисобот бериш тартиб қоидаларини ўз ичига олган ички ҳужжатлар, шунингдек ушбу масалалар билан шуғулланадиган бўлинмаларнинг мавжудлиги;

– суғурта компанияларининг ички назорат тизимининг мавжудлиги (ички назоратнинг маъмурий ва бухгалтерия жараёнларини тартибга солувчи ички ҳужжатларнинг мавжудлиги, иски назорат бўлимининг (штат бирлиги) мажбурийлиги ва бошқалар);

– компанияда актуарий шата бирлигининг мавжудлиги;

– суғурта компанияларининг шаффофлиги талабларига мувофиқлиги (ҳар ойда ўз web-сайтида пруденциал нормаларнинг бажарилиши тўғрисида, шунингдек молиявий ҳисоботларнинг барча шакллари назорат тартибида тақдим этилганлиги тўғрисидаги маълумотларнинг эълон қилиниши);

– суғурта хизматларини кўрсатиш ва суғурта қопламаларини тўлаш қоидаларига риоя қилиш (масалан, эълон қилинган суғурта ҳодисалари сони, шикоятларнинг фоизи ва бошқалар).

Шундай қилиб, Ўзбекистон суғурта бозорини тартибга солишнинг пруденциал тамойилларига ўтиши аллақачон ҳал қилинган масала. Хорижий пруденциал суғурта назорати амалиётини таҳлил қилиш ва уни тушиниш, шунингдек ушбу амалиётни Ўзбекистон шароитларига мослаштиришни янада чуқурроқ ўрганишни талаб қилиб қўяди.

Хулоса ва таклифлар.

Юқоридагиларни умумлаштирган ҳолда шуни таъкидлаш мумкинки, суғурта фаолиятини давлат томонидан тартибга солиш жараёни ҳал қилиш керак бўлган муаммоларнинг жиддийлиги ва мураккаблиги билан белгиланади.

Иқтисодий ривожланишнинг даврий табиати ва суғурта фаолиятидаги юқори рисклилик суғурта соҳасини давлат томонидан тартибга солиш тизимини шакллантиришни талаб қилади, бу эса макро ва суғурта компаниялари даражасида юзага келиши мумкин бўлган салбий тенденцияларни минималлаштиришга ёрдам беради, шунингдек суғурта фаолиятини давлат томонидан тартибга солиш таркиби, механизми, мақсадлари ва тартибга солиш воситаларини танлаш билан белгиланади.

Суғурталашни давлат томонидан тартибга солиш воситаларидан фойдаланиш умуман иқтисодиётнинг, хусусан молия секторининг стратегик ривожланиш мақсадларига мувофиқ бўлиши керак. Суғурта фаолиятини молиявий тартибга солиш тизимини шакллантиришга илмий асосланган ёндашувнинг асоси макро ва микро даражаларни қамраб олган пруденциал тартибга солиш механизмига асосланиши керак.

Пруденциал тартибга солишнинг асосий вазифаси тизимли таваккалчиликларни назорат қилиш ва олдини олиш, шунингдек тартибга солиш объекти сифатида эса миллий суғурта бозори ва молия бозорининг тизимли ривожланишининг асосий тенденцияларини белгилайдиган суғурта компаниялари бўлиши керак.

Ўз навбатида, суғурта назорати миллий суғурта бозорининг барқарор ривожланишини таъминлаш учун молиявий хавфсизлик кўрсаткичларини соҳа назорати тамойилларига асосланиши керак.

Адабиётлар/Литература/Reference:

1. Шокин В.О. (2017) Глобальная экономика и образцы лучших мировых практик государственного регулирования страхового рынка. Российское предпринимательство /Том 18/ Номер 1 январь. С. 89-109.
2. Андреева Е.В., Русакова О.И. (2015) Страховая деятельность и ее регулирование на современном страховом рынке. Иркутск: Байкальский государственный университет, 160 с.
3. Огорелкова Н.В. (2013) Вопросы пруденциального регулирования и надзора на российском страховом рынке / Вестник Омского университета. Серия «Экономика». № 2. С. 143–148.
4. Симакова Е.Ю. (2015) Особенности государственного регулирования страхового рынка в Российской Федерации // Государственное регулирование экономики в условиях глобализации. Сборник научных статей всероссийской

научно-практической конференции. Центр научных и образовательных технологий. 2015. С. 50–60.

5. Каменская Н. Ю. (2012) Инновационный подход к развитию регулирования и контроля страхового рынка Российской Федерации : автореф. дис. ... канд. экон. наук. – М., – 26 с.

6. Кузовлева Н.Ф. (2014) Актуальные вопросы регулирования и контроля в сфере страхования. Экономика, Статистика и Информатика. №1 С. 82-84.

7. I.Abdurakhmonov, Z.Beknazarav, J.Tursunov. (2020) The effectiveness of the organization of activities of insurance intermediaries in the development of insurance networks. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 04, 2020. Pages 3888-3896.

TIBBIY PARAZITOLOGIYA

Mavlonova Barno Madaminovna

Andijon viloyati Baliqchi tumani Baliqchi Abu Ali Ibn Sino nomiidagi jamoat salomatlik texnikumi „Tibbiyot biologiyasi va generika“fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola tibbiy parazitologiyaning murakkab sohasiga kirib, odamlarga ta'sir qiluvchi parazitar infeksiyalar haqida to'liq ma'lumot beradi. Tizimli adabiyotlarni tahlil qilish orqali maqolada parazitlarni tashxislash va o'rganishda qo'llaniladigan usullar o'rganiladi, asosiy topilmalar taqdim etiladi va aholi salomatligiga ta'siri haqida batafsil muhokama qilinadi. Ushbu maqola tushunchalar va takliflar bilan yakunlanib, tibbiy parazitologiya haqidagi tushunchamizni oshirishga va samarali profilaktika va terapevtik strategiyalarni ishlab chiqishga hissa qo'shishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Tibbiy parazitologiya, parazitar infeksiyalar, diagnostika, adabiyotlarni tahlil qilish, sog'liqni saqlash, parazitlarning hayot aylanishi, epidemiologiya, davolash strategiyalari.

Tibbiy parazitologiya-bu parazitar organizmlar va ularning inson xostlari o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirlarni tushunishga bag'ishlangan soha. Parazitar infeksiyalar global salomatlik uchun muhim muammolarni keltirib chiqarmoqda va butun dunyo bo'ylab millionlab odamlarga ta'sir qiladigan ko'plab kasalliklarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu maqola diagnostika, epidemiologiya va davolash strategiyalariga e'tibor qaratib, tibbiy parazitologiyaning hozirgi holatini to'liq tekshirishga qaratilgan.

Mavjud adabiyotlarni tizimli ko'rib chiqish odamlarni qiynayotgan turli xil parazit organizmlarni ochib beradi. Protozoyadan gelmintlarga qadar har bir parazit o'ziga xos xususiyatlarni, hayot tsikllarini va yuqish usullarini namoyish etadi. Adabiyot tahlili shuningdek diagnostika texnikasidagi yutuqlarni ta'kidlaydi, shu jumladan mikroskopiya, serologik testlar, molekulyar usullar va tasvirlash usullari, parazitlarni aniq aniqlash va tavsiflashga imkon beradi.

Tadqiqotda PubMed, ScienceDirect va Google Scholar kabi ma'lumotlar bazalaridan foydalangan holda adabiyotlarni ko'rib chiqishda tizimli yondashuv qo'llanilgan. Tegishli maqolalarni aniqlash uchun "tibbiy parazitologiya", "parazitar infeksiyalar" va "diagnostika" kabi kalit so'zlar ishlatilgan. Kiritish mezonlari so'nggi o'n yil ichida nashr etilgan tadqiqotlarni qamrab oldi va bu sohadagi so'nggi yutuqlarni o'z ichiga oldi.

Tibbiy parazitologiya-bu mikrobiologiyaning odamlarda kasalliklarni keltirib chiqaradigan parazitlarni o'rganishga qaratilgan bo'limi. Parazitlar-bu boshqa organizmda (xostda) yashaydigan va xostning sog'lig'i hisobiga xostdan ozuqa

moddalarini oladigan organizmlar. Tibbiy parazitologiya ushbu parazitlarni, shuningdek ular keltirib chiqaradigan kasalliklarni, ularning hayot tsikllarini va xost-parazitlarning o'zaro ta'sir mexanizmlarini aniqlash, tasniflash va o'rganishni o'z ichiga oladi.

Parazitlarni keng uchta asosiy guruhga bo'lish mumkin:

- Protozoa: bular bir hujayrali organizmlar bo'lib, ularga Plasmodium (bezgak), Tripanosoma (Afrika uyqu kasalligi) va Giardiasis (giardiasis) kabi parazitlar kiradi.
- Gelmintlar: bu ko'p hujayrali qurtlar va yana ikkita asosiy guruhga bo'linadi:
 - Nematodalar (dumaloq qurtlar): masalan, Ascaris lumbricoides (askariazni keltirib chiqaruvchi) va Enterobius vermicularis (chuvalchang).
 - Platifelmintlar (yassi chuvalchanglar): bu guruhga Taenia solium (taeniazni keltirib chiqaruvchi) kabi sestodalar (tasmasimon chuvalchanglar) va shistosoma (shistosomiazni keltirib chiqaruvchi) kabi trematodalar (flukes) kiradi.
- Artropodlar: ba'zi parazitlar Shomil, oqadilar, bitlar va burgalar kabi artropodlar bo'lib, ular Lyme kasalligi, qo'tir va TIF kabi kasalliklarni yuqtirishi mumkin.

Tibbiy parazitologiyaning asosiy jihatlariga quyidagilar kiradi:

- Tashxis: klinik namunalarda parazitlarni aniqlash (qon ,najas, siydik va boshqalar.) mikroskopiya, serologik testlar va molekulyar usullarni o'z ichiga olgan turli laboratoriya usullaridan foydalanish.
- Epidemiologiya: parazitlar kasalliklarning turli populyatsiyalar va mintaqalarda tarqalishi va tarqalishini tushunish.
- Hayot sikllari: parazitlarning hayot sikllarini, shu jumladan ularning rivojlanish bosqichlarini va bir xostdan ikkinchisiga qanday o'tishini o'rganish.
- Davolash va nazorat qilish: parazitlar infektsiyalarni davolash va nazorat qilish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish, bu antiparazitik dorilarni qo'llash, profilaktika choralari va sog'liqni saqlash tadbirlarini o'z ichiga olishi mumkin.
- Xost-parazitlarning o'zaro ta'siri: parazitlarning o'z xo'jayinlari bilan o'zaro ta'sirini, shu jumladan, ularning immunitet tizimidan qochish mexanizmlarini o'rganish.

Tibbiy parazitologlar ko'pincha laboratoriyalarda, kasalxonalarda va ilmiy-tadqiqot muassasalarida parazitlar kasalliklarni tushunish va nazorat qilishga hissa qo'shish uchun ishlaydi. Ushbu parazitlarni tushunish global sog'liqni saqlashni yaxshilash uchun samarali davolash va oldini olish strategiyasini ishlab chiqish uchun juda muhimdir.

Muhokama adabiyot topilmalarining aholi salomatligi uchun ta'sirini o'rganadi. Parazitlar infektsiyalarning oldini olish va nazorat qilishdagi muammolar ko'rib chiqilib, integratsiyalashgan strategiyalar, jumladan, ta'lim, sanitariya va sog'liqni saqlash imkoniyatlaridan foydalanish muhimligini ta'kidlaydi. Rivojlanayotgan dori

qarshiligining roli ham o'rganilib, doimiy tadqiqotlar va davolashning yangi yondashuvlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Xulosa va takliflar:

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqola tibbiy parazitologiyada parazitar infektsiyalar keltirib chiqaradigan murakkab muammolarni hal qilishda davom etayotgan tadqiqotlarning muhim ahamiyatini ta'kidlaydi. Ilg'or diagnostika usullarini birlashtirish va maqsadli davolash strategiyasini ishlab chiqish samarali nazorat va yo'q qilish uchun juda muhimdir. Parazitar kasalliklarni davom ettiradigan ijtimoiy-iqtisodiy omillarni hal qilish va sog'liqni saqlash infratuzilmasini yaxshilash uchun global miqyosdagi hamkorlikdagi sa'y-harakatlar talab etiladi.

- Parazitar infektsiyalarni erta va aniq aniqlash uchun yangi diagnostika vositalarini tadqiq qilish va ishlab chiqishga mablag ' sarflang.

- Jamiyatlarni profilaktika choralari va davolash usullari to'g'risida ma'lumot berish uchun sog'liqni saqlash kampaniyalarini kuchaytirish.

- Chegaralardan oshib ketadigan parazitar kasalliklarni bartaraf etish bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

- Parazitar infektsiyalar tarqalishini kamaytirish uchun barqaror sanitariya va gigiena dasturlarini amalga oshirish.

- Yangi antiparazitik dorilar va vaksinalarni ishlab chiqish bo'yicha tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash.

Ushbu takliflarni qabul qilib, jahon hamjamiyati parazitar infektsiyalarning inson salomatligiga ta'siri sezilarli darajada yumshatilgan kelajakka intilishi mumkin.

References.

1. Alberts B, Johnson A, Lewis J. et al. (2002): Molecular Biology of the Cell. Part II. Basic Genetic Mechanisms, Chapter 6. How Cells Read the Genome: From DNA to Protein, 4th edition, New York: Garland Science. [This describes the cells and genomes, protein Synthesis, the structure and function of DNA, how DNA transcribes to RNA and how RNA is translated to protein].
2. Ambroise-Thomas, P. (2001): Parasitic diseases and immunodeficiencies. Parasitology 122(Suppl.):s65- s71. [the immunodepression associated with HIV and AIDS infections has resulted in the establishment of a number of new opportunistic parasitic infections].
3. Butler, J. M. (2001): Forensic DNA Typing. Elsevier. pp. 14–15. [It described the detailed structure of the nucleus of the cells, the chromosomes and DNA].
4. Cox F. E. G. (2002): History of Human Parasitology. In Clinical Microbiology Reviews, Vol. 15, No. 4, p. 595-612. [This presents history of cestodiasis with identification of about 40 species of adult tapeworms].

5. Etches V, Frank J, Di Ruggiero E. (2006): Manuel D. Measuring population health: a review of indicators. *Annu Rev Public Health.*; 27:29-55.[Measurement of parasitic diseases impact using DALYs and QALYs].
6. Fotedar R, Stark D, Beebe N, et al. (2007): Laboratory diagnostic techniques for *Entamoeba* species. *Clin Microbiol Rev*; 20 (3):511-32,[The authors reported about the prevalence rate of amoebiasis that it is worldwide and the different identified species of *Entameba*] .

KARRALI TUGUNLAR BO'YICHA INTERPOLYATSIYALASH

Xakimjonoa Sarvinoz

Javlonova Muhlisa

*Amaliy matematika (sohalar bo'yicha)
yo'nalishi 1-kurs magistratura talabalari
Farg'ona davlat universiteti*

Kalit so'zlar: Lagranj interpolyatsion ko'pxadi, Teylor ko'pxadi, Ermit formulasi. Hisoblash usullari amaliyotda uchraydigan masalalarni taqribiy yechish bilan shug'ullanadi. Ma'lumki, tabiiy fanlar hamda texnika fanlarida uchraydigan ko'pgina masalalar chiziqsiz differensial tenglamalarga keltiriladi, ya'ni ularning analitik yechimini topish nihoyatda murakkab masala, shu sababli taqribiy yechish usullaridan foydalanish ko'proq samara beradi. Hozirgi zamon matematikasi boshqa tabiiy fanlar bilan birga yangi muammolarni hal qilmoqda. Masalan, mexanikada karrali integrallar yordamida og'irlik markazi, inersiya momentlari va boshqa kattaliklari hisoblash osonroq bo'ladi.

Ключевые слова: коэффициент интерполяции Лагранжа, разложение Тейлора, формула Эрмита. Методы расчета имеют дело с приближенным решением задач, встречающихся на практике. Известно, что многие задачи, встречающиеся в естественных и технических науках, сводятся к нелинейным дифференциальным уравнениям, то есть найти их аналитическое решение чрезвычайно сложно, поэтому использование приближенных методов решения более эффективно. Современная математика вместе с другими естественными науками решает новые задачи.

Key words: Lagrange interpolation coefficient, Taylor expansion, Hermite's formula. Calculation methods deal with the approximate solution of problems encountered in practice. It is known that many problems encountered in natural sciences and technical sciences are reduced to nonlinear differential equations, that is, finding their analytical solution is extremely difficult, so the use of approximate solution methods is more effective. Modern mathematics, together with other natural sciences, solves new problems. For example, in mechanics, it is easier to calculate the center of gravity, moments of inertia and other quantities using multiple integrals.

Bu maqolada interpolyasion masalaning Ermit tomonidan ko'rsatilgan quyidagi umumlashgan holini ko'rib chiqamiz. Faraz qilaylik, $[a, b]$ oraliqda interpolyasiyaning $(m+1)$ ta har xil tugunlari berilgan bo'lsin. Shu oraliqda aniqlangan funksiyani olaylik va $x = x_i$ ($i = \overline{0, m}$) nuqtalarda $f(x)$ ning hamda uning ketma-ket hosilalarining qiymatlari $f(x_i), f'(x_i), \dots, f^{(a_i-1)}(x_i)$ ($i = \overline{0, m}$) berilgan bo'lsin. Bu erda a_0, a_1, \dots

, a_m mos ravishdagi tugunlarning karra ko`rsatkichlari deyiladi, $f(x)$ funksiya haqidagi barcha dastlabki ma'lumotlarning sonini $n+1$ orqali belgilaymiz: $a_0 + a_1 + \dots + a_m = n+1$. Endi darajasi $(n+1)$ dan ortmaydigan

$$H_n^{(i)}(x_k) = f^{(i)}(x_k) \quad (k = \overline{0, m}; i = \overline{0, a_k - 1}) \quad (1)$$

shartlarni qanoatlantiruvchi

$$H_n(x) = a_0 x^n + a_1 x^{n-1} + \dots + a_n \quad (2)$$

ko`phadni quraylik. Bu shartlar $a_i (i = \overline{0, n})$ noma'lumlarni topish uchun $(n+1)$ ta chiziqli tenglamalar sistemasini beradi. Bu istema yechimining mavjudligi va yagonaligini ko`rsatish uchun

$$H_n^{(i)}(x_k) = 0 \quad (k = \overline{0, m}; i = \overline{0, a_k - 1}) \quad (3)$$

bir jinsli sistemaning faqat trivial echimga ega ekanligini ko`rsatish kifoyadir. (3) sistema shuni ko`rsatadiki x_0, x_1, \dots, x_m tugunlar $H_n(x)$ ko`phad uchun mos ravishda a_0, a_1, \dots, a_m lardan kichik bo`lmagan tartibli ka $H_n(x)$ ko`phad ildizlarining karra ko`rsatkichlari yig`indisi $a_0 + a_1 + \dots + a_m = n+1$ ga teng yoki undan katta ildizlardir. Darajasi n dan ortmaydigan va ildizlar karra ko`rsatkichlari yig`indisi n dan kata bo`lgan $H_n(x)$ ko`phad faqat aynan nolga teng bo`lishi kerak. Bundan esa uning barcha a_i koefitsientlarining nolga tengligi va bir jinsli sistemaning faqat trivial echimga egaligi kelib chiqadi. Shunday qilib, (3) dagi $f^{(i)}(x_k)$ qiymatlarning qanday bo`lishidan qat'i nazar, qo`yilgan masala yagona echimga ega. $H_n(x)$ ko`phadning (x_k) tugunlar va $f^{(i)}(x_k)$ qiymatlar orqali oshkor ko`rinishini determinantlar yordamida ifodalash mumkin. Lekin bunday ifodaning tuzilishi juda murakkabdir. Shuning uchun bu yerda ham Lagranj interpoliyasion ko`phadini tuzgandek, boshqacha yo`l tutamiz. Buning uchun fundamental qo`phadlar deb ataluvchi n -darajali $Q_{ij} = (x) \quad (i = \overline{0, m}; j = \overline{0, a_i - 1})$ ko`phadlarni, ya'ni

$$\begin{aligned} Q_{ij} = (x_k) &= Q_{ij}' = (x_k) = \dots = Q_{ij}^{(a_k - 1)}(x_k) = 0, k \neq i \quad (4) \\ Q_{ij} = (x_i) &= Q_{ij}' = (x_i) = \dots = Q_{ij}^{(j-1)}(x_i) = Q_{ij}^{(j+1)}(x_i) = Q_{ij}^{(a_i - 1)}(x_i) = 0 \\ Q_{ij}^{(j)} &= (x_j) = 1 \\ (i = \overline{0, m}; j = \overline{0, a_i - 1}) \end{aligned} \quad (5)$$

shartlarni qanoatlantiruvchi ko`phadlarni tuzamiz. U holda izlanayotgan ko`phadni quyidagicha yozish mumkin:

$$H_n(x) = \sum_{i=0}^m \sum_{j=0}^{a_i-1} f^{(j)}(x_i) Q_{ij} = (x) \quad (6)$$

(4) tengliklardan ko`ramizki, $Q_{ij} = (x) \quad x_0, x_1, \dots, x_m$ nuqtalarda mos ravishda $a_0 + a_1 + \dots + a_m$ karrali nollarga ega bo`lib, (5) tengliklarga asosan x_i nuqtada u karrali nolga ega.

Demak,

$$Q_{ij}(x) = (x-x_0)^{a_0} (x-x_1)^{a_1} \dots (x-x_{i-1})^{a_{i-1}} (x-1)^j (x-x_{i+1})^{a_{i+1}} \dots (x-x_m)^{a_m} q_{ij}(x) \quad (7)$$

Buyerda $q_{ij}(x)$ $x = x_i$ nuqtada nolga aylanmaydigan

$$n - (a_0 + \dots + a_{i-1} + j + a_{i+1} + \dots + a_m) = a_i - j - 1$$

darajali ko`phaddir. Quyidagi belgilashni kiritaylik

$$\Omega(x) = (x-x_0)^{a_0} \dots (x-x_m)^{a_m} \quad (8)$$

U holda (7) — (8) dan ushbu

$$Q_{ij}(x) = \frac{\Omega(x)}{(x-x_i)^{a_i-j}} q_{ij}(x) \quad (9)$$

formulaga ega bo`lamiz. $q_{ij}(x)$ ni aniqlash uchun (5) shartlarga murojaat qilamiz.

Bulardan $Q_{ij}(x)$ ning x_i nuqta atrofidagi Teylor yoyilmasi quyidagi ko`rinishga ega ekanligi kelib chiqadi:

$$Q_{ij}(x) = \frac{1}{j!} (x-x_i)^j + (x-x_i)^{j+1} + \dots + a_{ij}^{(n-1)} (x-x_i)^n = \frac{(x-x_i)^j}{j!} [1 + b_{ij}^{(1)}(x-x_i) + \dots + b_{ij}^{(n-j)}(x-x_i)^{n-j}] \quad (10)$$

Bu va (9) dan $q_{ij}(x)$ ko`phad uchun quyidagi

$$q_{ij}(x) = \frac{(x-x_i)^{a_j}}{j!\Omega(x)} + C_{ij}(x-x_i)^{a_j-j} + \dots \quad (11)$$

ifodaga ega bo`lamiz.

Ushbu $\frac{(x-x_i)^{a_j}}{j!\Omega(x)}$, rasional funksiya x_i nuqta atrofida regulyar bo`lganligi uchun

$x-x_i$ ning darajalari bo`yicha Teylor qatoriga yoyiladi. Ikkinchi tomondan $q_{ij}(x)$ darajasi $a_i - j - 1$ ga teng bo`lgan ko`phad bo`lganligi uchun u $\frac{(x-x_i)^{a_j}}{j!\Omega(x)}$ qatoriga yoyilmasining darajasi $a_i - j - 1$ larining yig`indisiga tengdir:

$$q_{ij}(x) = \frac{1}{j!} \sum_{k=0}^{a_i-j-1} \frac{1}{k} \left[\frac{(x-x_i)^{a_i}}{\Omega(x)} \right]_{x=x_i}^{(k)} (x-x_i)^k \quad (2.12)$$

Aksincha, $q_{ij}(x)$ ning shunday tanlanishi $Q_{ij}(x)$ uchun (10) yoyilmani va demak, (4) - (2.5) shartlarning bajarilishini ta'minlaydi. (12) ni (9) ga qo`yib,

$$Q_{ij}(x) = \frac{\Omega(x)}{j!(x-x_i)^{a_i-j}} \sum_{k=0}^{a_i-j-1} \frac{1}{k} \left[\frac{(x-x_i)^{a_i}}{\Omega(x)} \right]_{x=x_i}^{(k)} (x-x_i)^k$$

ni hosil qilamiz va nihoyat, (6) dan

$$H_h(x) = \sum_{i=0}^m \sum_{j=0}^{a_i-1} \frac{1}{j!} \sum_{k=0}^{a_i-j-1} \frac{1}{k!} f^{(i)}(x_i) \left[\frac{(x-x_i)^{a_i}}{\Omega(x)} \right]_{x=x_i}^{(k)} \frac{\Omega(x)}{(x-x_i)^{a_i-j-1}} \quad (13)$$

Ermit formulasini hosil qilamiz. Bu formulaning xususiy holi sifatida Lagranj interpolyasion ko`phadi hamda ko`phad uchun Teylor formulasini chiqarish mumkin.

Hozir Ermit formulasining boshqa bir xususiy holiki ko`rib chiqaylik. Barcha a_i lar 2 ga teng bo`lsin, ya'ni shunday n-darajali ko`phadni topish kerakki, u

$$\begin{aligned} H_{n(x_i)} &= f(x_i) \\ H_{n(x_i)} &= f'(x_i) \end{aligned} \quad (i=0,1,\dots,m)$$

shartlarni qanoatlantirsin. Bu shartlarning geometrik ma'nosi quyidagidan iborat: interpolyasion egri chiziq berilgan $y = f(x)$ egri chiziq bilan interpolyasiya tugunlarida umumiy urinmalarga ega. U holda (13) quyidagi ko`rinishda bo`ladi:

$$H_h(x) = \sum_{i=0}^m \left\{ f(x_i) \left[\frac{(x-x_i)^2}{\Omega(x)} \right]_{x=x_i} \frac{\Omega(x)}{(x-x_i)^2} + f'(x_i) \left[\frac{(x-x_i)^2}{\Omega(x)} \right]_{x=x_i} \frac{\Omega(x)}{(x-x_i)^2} \right\} \quad (14)$$

Odatdagidek

$$\omega_{m+1}(x) = (x-x_0)(x-x_1)\dots(x-x_m)$$

belgilash kiritsak, u holda

$$\Omega'(x) = \omega_{m+1}^2(x), \quad \frac{(x-x_i)^2}{\Omega(x)} = \left[\frac{(x-x_i)}{\omega_{m+1}(x)} \right]^2$$

ga ega bo`lamiz.

Oxirgi limitni topish uchun Lopital qoidasini qo`lladik. Bularni hisobga olganda (14) formula quyidagi ko`rinishga ega bo`ladi:

$$H_h(x) = \sum_{i=0}^m \frac{\omega_{m+1}^2(x)}{\omega_{m+1}^2(x_i)(x-x_i)^2} \left[f(x_i) \left(1 - \frac{\omega_{m+1}''(x)}{\omega_{m+1}''(x_i)} (x-x_i) \right) + f'(x_i)(x-x_i) \right] \quad (15)$$

M i s o l. Quyidagi shartlarni qanoatlantiradigan beshinchi darajali

$H_5(x)$ ko`phad topilsin:

$$H_5(-1) = -1, H_5(0) = 1, H_5(1) = 1$$

$$H_5'(-1) = 0, H_5'(0) = 1, H_5'(1) = 0$$

Bu erda

$$\omega_3 = (x+1)x(x-1), \omega_3' = 3x^2 - 1, \omega_3'' = 6x.$$

Endi (15) formuladan

$$H_5(x) = \frac{x^2(x-1)^2}{4} \left[-1 \left(1 - \frac{6(-1)}{2} (x-1) \right) \right] + \frac{(x-1)^2(x+1)^2}{1} x + \frac{x^2(x+1)^2}{4} \left[-1 + 3(x-1) \right] = \frac{1}{2} (-x^5 + x^3 + 2x)$$

natija kelib chiqadi.

Endi Ermit formulasining qoldiq hadini tekshiramiz.

Teorema. Agar $f(x)$ funksiya $[a,b]$ oraliqda $(n+1)$ -tartibli uzluksiz hosilaga ega bo`lsa, u holda Ermit interpolyasion formulasining qoldiq hadini

$$R_n(x) = f(x) - H_n(x) = f^{(n+1)}(\xi) \frac{\Omega(x)}{(n+1)!} \quad (16)$$

ko`rinishda ifodalash mumkin. Bu erda ξ $[a,b]$ oraliqqa tegishli nuqta bo`lib, umuman x ning funksiyasidir.

Isbot. x ning interpolyasiya tugunlaridan farqli biror qiymatini olib, $K = \frac{R(x)}{\Omega(x)}$ deb

belgilaylik. U holda ushbu

$$\phi(z)R_n(z) - K\Omega(z) \quad (17)$$

funksiya x_0 nuqtada a_0 karrali nolga, x_1 nuqtada a_1 karrali va h. k. x_m nuqtada a_m karrali nolga ega. Bundan tashqari y x nuqtada ham nolga aylanadi. Demak, funksiya $\phi(z)$ $[a,b]$ oralig`ining $m+2$ ta x_0, x_1, \dots, x_m nuqtalarida nolga aylanib, bu nollar karralilarining yig`indisi ga $a_0 + a_1 + \dots + a_m + 1 = n + 2$ teng. Demak, $[a,b]$ oraliqda kamida shunday ξ bitta nuqta topiladiki,

$$f^{n+1}(\xi) = 0 \quad (18)$$

bo`ladi. Lekin

$$f^{n+1}(z) = f^{n+1}(z) - K(n+1)! \quad (19),$$

chunki $H_n(z)$ darajasi n dan ortmaydigan ko`phad, demak, $H_n^{(n+1)}(z) = 0$ va $\Omega(x)$ bosh hadi 1 ga teng bo`lgan $(n+1)$ -darajali ko`phad, uning $(n+1)$ -tartibli hosilasi $(n+1)!$ ga teng. (18) -(19) dan

$$K = \frac{f^{n+1}(\xi)}{(n+1)!}.$$

Demak,

$$R_n(x) = \frac{f^{n+1}(\xi)}{(n+1)!} \Omega(x).$$

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1. *Isroilov M.I.* Hisoblash metodlari. 1-qism. – T.: «O‘zbekiston», 2003.
2. *Isroilov M.I.* Hisoblash metodlari. 2-qism. - T.: « O‘qituvchi», 2008.
3. *Ismatullayev G. Koshergenova M.* Hisoblash usullari. – T.:«TAFAKKUR-BO‘STONI», 2014.
4. <https://byjus.com/>

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	ANTIBIOTIKLAR ISLAB CHIQRISHDAGI MEHNAT GIGIENASI	3
2	УН МАХСУЛОТЛАРИНИ ХАФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ДОННИ Қ АЙТА ИШЛАШ КОРХОНАЛАРИНИНГ УРНИ	9
3	ВОЗДЕЙСТВИЕ МУЧНОЙ ПЫЛИ НА ОБЪЕМ И ЕМКОСТЬ ЛЕГКИХ У РАБОЧИХ МУКОМОЛЬНЫХ КОМБИНАТОВ	15
4	МАКТАВГАЧА ТА'ЛИМНИ ТАШКИЛ ETISHDA INTERAKTIV O'YIN TECHNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	19
5	BUYUK AJDODLARIMIZNI KASB - HUNAR TO'G'RISIDAGI PSIXOLOGIK QARASHLARI	24
6	АЁЛЛАРГА НИСБАТАН ЗЎРАВОНЛИКНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ	28
7	ISHLAB CHIQRISH SOHALARIDA ISHCHI-XODIMLARNI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH	33
8	AI TECHNOLOGIES: BENEFITS CHALLENGES AND ETHCAL CONSIDIRATION	37
9	SUTAINABLE FASHION: STYLE AND ETHIC	40
10	UNIVERSITY EDUCATION SHOULD BE FREE	42
11	THE FUTURE OF VIRTUAL REALITY IN EDUCATION	44
12	THE PSYCHOLOGY OF DECISION-MAKING	46
13	OITS BEMORLARDA ICHKI KASALLIKLAR KOMORBID HOLATLAR	48
14	ЁШЛАРДА СУРУНКАЛИ НОСПЕЦИФИК ЎПКА КАСАЛЛИКЛАРИ ТАРҚАЛИШИ КЛИНИК ВА ФУНКЦИОНАЛ ХУСУСИЯТЛАРИНИ ЎРГАНИШ	53
15	STUDY OF CLINICAL AND FUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF CHRONIC NON-SPECIFIC LUNG DISEASES PREVALENCE IN YOUNG PEOPLE	57
16	ENERGETIKA XO'JALIKLARIDA ELEKTR XAVFSIZLIGI	62
17	TA'SIR ETUVCHI ELEKTR QURILMALARINI XAVFSIZLIGINI O'RGANISH	65
18	QOQIO'TDOSHLAR OILASIGA MANSUB AYRIM DORIVOR O'SIMLIKLARNING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI	67
19	OMON MATJON ASARLARI TILINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	70
20	A COMPARATIVE TYPOLOGY OF 15TH CENTURY ENGLISH AND UZBEK LITERATURE	73
21	OSHQOZON YARASI KASALLIGI	77
22	JIGAR KASALLIKLARI TURLARI	79
23	ULTRATOVUSH TEKSHIRUVI	81
24	ВЗАИМОСВЯЗЬ КУЛЬТУРЫ И ОБРАЗОВАНИЯ	84

25	BOSHQARUV USLUBINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYALARI	90
26	YANGI O'ZBEKISTON, YANGICHA TA'LIM TIZIMI VA YANGICHA YONDASHUVLAR	94
27	STRATEGIES FOR INCREASING VEGETABLE YIELDS AND PROBLEM SOLUTIONS	98
28	THE DEVELOPMENT OF THE FOOD INDUSTRY	105
29	A COMPREHENSIVE STUDY ON THE GERMINATION OF SEEDS	114
30	BUXORO VILOYATIDA UZUMNI ZAMONAVIY USULLARDA SAQLASH TEXNOLOGIYALARINI SAMARADORLIGI	119
31	BUXORO VILOYATIDA QOVUN NAVLARINI QURITISH TEXNOLOGIYALARINI SAMARADORLIGI	123
32	ZEMSNARYADLARNING KESUVCHI BOSHIDAGI OQIM VA ZARACHANING HARAKATLARINI BASHORAT QILISH	127
33	JIZZAX VOHASI TOJK AHOLISINING AN'ANAVIY XALQ O'YINLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING TURLARI	131
34	МОДЕЛИРОВАНИЕ ТЕМПЕРАТУРНО-ЗАВИСИМОСТИ ОСЦИЛЛЯЦИИ ПОПЕРЕЧНОГО МАГНИТОСОПРОТИВЛЕНИЯ И ЭЛЕКТРОПРОВОДНОСТИ В ГЕТЕРОСТРУКТУРАХ С КВАНТОВЫМИ ЯМАМИ	137
35	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАГЛЯДНЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА	153
36	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕЛЛЕКТ - КАРТ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ЛЕКСИЧЕСКОГО МАТЕРИАЛА НА ЗАНЯТИЯХ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ	156
37	ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ ПОДГОТОВКИ СПОРТСМЕНОВ В СПОРТИВНОЙ АКРОБАТИКЕ	161
38	СУҒУРТА СОҲАСИДА МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТ ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА	168
39	TIBBIY PARAZITOLOGIYA	176
40	KARRALI TUGUNLAR BO'YICHA INTERPOLYATSIYALASH	180

***Напоминание!** — Образование наука и инновационные идеи в мире || Авторы несут персональную ответственность за правильность цифр и данных в статьях и планах занятий, включенных в мировой научно-методический журнал, и за правильность приведенных цитат.*


**Главный редактор:
Семёнов Владимир Львович**

**Помощник редактора:
Абдурахманов Бобуржон**

**Подготовитель к публикации:
Халиков Тохирджон Шавкатжонович**

— Образование наука и инновационные идеи в мире всемирный научно-методический журнал, 2023-г.





OPEN  ACCESS

